

Muhammad YUSUF



IYMON QO'SHIG'I

She'rlar

"ANDIJON NASHRIYOT-MATBAA"
ochiq aksiyadorlik jamiyati
2004

**Muqovani O'zbekiston xalq rassomi
Nizomiddin XOLIQOV bezagan.**

Yusuf, Muhammad.

**Iyomon qo'shig'i. (She'rlar) - A., «Andijon nashriyot-matbaa» OAJ,
2004 yil. 80 het.**

XX asr o'zbek she'riyatining yorqin yulduzlaridan biri Muhammad Yusuf qisqa umri davomida otashin, qalhga yaqin she'r-dostonlari bilan xalq mehr-muhabbatiiga sazovor bo'la oldi. Uning eng yaxshi she'rlari dan sarabab tuzilgan ushbu kitob shoir tavalludining 50 yilligini nishonlayotgan elimizga o'ziga xos tuhfadir.

Andijon viloyati
Z. M. Bobur nomli
kutubxonasi.
84 (5 yil)
Ю . 91

© «ANDIJON
NASHRIYOT-MATBAA»
OAJ - 2004

XALQ BO'L, ELIM

Qadim yurtga qaytsin qadim navolarim,
Qumlar bosib qurimasin daryolarim.
Alpomishga alla aytgan momolarim
Ruhini shod etay desang - xalq bo'l, elim!..

Dunyoga boq, qaddi sendek kim bor yana,
Dovrug'i ham dardi sendek kim bor yana.
Xalq bo'lishga haddi sendek kim bor yana,
Moziyni yod etay desang - xalq bo'l, elim.

Sen tebratgan beshigini Sohibqiron,
Sening bolang yulduzlarga qo'ygan narvon.
Bir mayizni qirqa bo'lgan bir tanu jon -
Kunlaringga qaytay desang - xalq bo'l elim.

Daryo bo'lib jo'shgin endi zavqi ulug',
Bayramingda sevinch ko'z yoshingga qulluq,
Yurtim degan jasur Yurtboshingga qulluq,
Unga qanot bo'lay desang - xalq bo'l, elim.

Bo'lar elning bolalari bir-birin der,
Bo'lmas elning bolalari bir-birin yer.
Bir bo'l endi, qadri baland qaddingni ker,
Xalq bo'l, elim, xalq bo'l, elim, xalq bo'l, elim!

VATANIM

Men dunyonи nima qildim,
O'zing yorug' jahonim,
O'zim hoqon,
O'zim sulton,
Sen taxti Sulaymonim,
Yolg'izim,
Yagonam deymi,
Topingan koshonam deymi,
O'zing mening ulug'lardan
Ulug'imsan, Vatanim...

Shodon kunim gul otgan sen,
Chechak otgan izimga, .
Nolon kunim yupatgan sen,
Yuzing bosib yuzimga.
Singlim deymi,
Onam deymi,
Hamdardu hamxonam deymi,
Oftobdan ham o'zing mehri -
Ilig'imsan, Vatanim.

Sen Mashrabsan,
Xalqda tumor,
Balxda dorga osilgan,
Navoiysan, shoh yonida
Faqrin duo qilgan.
Yassaviysan, meniki deb,
Ko'ringan da'vo qilgan,
Ming bir yog'i ochilmagan
Qo'rig'imsan, Vatanim.

Sen Xo'jandsan,
Chingizlarga
Darbozasin ochmagan,
Temur Malik orqasidan
Sirdaryoga sakragan,
Muqannasan qorachig'i
Olovlargacha sakragan,
Shiroqlarni ko'rgan cho'pon
Cho'lig'imsan, Vatanim.

Kim Qashqarni qildi makon,
Kim Enasoy tomonda,
Jaloliddin - Kurdistonda,
Boburing - Hindistonda,

Bu qanday yuz qarolig' deb,
Yotarlar zimistonda,
Taqqab ketgan to'qson olti
Urug'imsan, Vatanim...

O'g'lim, desang osmonlarga
G'irot bo'lib uchgayman,
Chambil yurtda Alpomishga
Navkar bo'lib tushgayman,
Padarkushdan pana qilib
Ulug'beging quchgayman,
G'ichir-g'ichir tishimdag'i
So'lig'imsan, Vatanim...

O'tgan kuning - o'tgan kundir,
O'z boshingga yetgan kun,
Qodiriyni bergen zamin,
Qodiriyni sotgan kun.
Qo'lin bog'lab,
Dilin dog'lab,
Yetaklashib ketgan kun,
Voh bolam! deb aytolmagan
Dudug'imsan, Vatanim.

Yoningda qon yig'lagan bir
Shoiringga qarab qo'y,
Gar Qo'qonga yo'ling tushsa,
Detdomlarni so'rab qo'y.
Hech bo'lmasa Usmon hókin
Keltirmoqqa yarab qo'y,
Olislarda qurib qolgan
Qudug'imsan, Vatanim...

Sen - shoxlari osmonlarga
Tegib turgan chinorim,
Ota desam,
O'g'lim deb,
Bosh egib turgan chinorim,

Qo'ynimdag'i iftixorim,
Bo'ynimdag'i tumorim,
O'zing mening ulug'lardan
Ulug'imsan, Vatanim!

OZODA

Ozodani sevaman men, Ozodani,
Suluvlarning sarvari - xonzodani.
Yo'latmasman yoniga shabbodani,
Ozodani sevaman men, Ozodani.

Ko'rganmanu ko'rganim ertasidan,
Yuragim qoq bo'lingan o'rtasidan.
Har kuni bir o'taman ko'chasidan,
Ozodani sevaman men, Ozodani.

O'taman-da. O'tmasam bo'lmaydi hech,
O'tmay desam, ko'ngil o'lgur to'lmaydi hech.
Ko'zim toyib ketaverar - qo'ymaydi hech,
Ozodani sevaman men, Ozodani.

Bir eslasam zirqillaydi bandi-handim,
Kechagina bir qizchani o'ynatgandim!
Kuchugiga oqqand berib o'rgatgandim,
Ozodani sevaman men, Ozodani.

Tushunmaslar kuladi: esiz-esiz,
Kimdir ermak qiladi: esiz-esiz,
Xotinim ham biladi, nima deysiz?
Ozodani sevaman men, Ozodani.

Yigit qirqda qirchillab g'arq pishadi,
Ertalidin sochimga oq tushadi,
Chin oshiqlar qirq yilda topishadi!
Ozodani sevaman men, Ozodani.

Sevgan edim, hamon u suyukli yor,
Bilagida barmog'imning izi bor.
Ozodaning bir o'g'il, bir qizi bor...
Men baribir sevaman Ozodani.

YOLG'ONCHILAR

Suluvlardan suluv bir qiz sochim silat,
Mening esa ko'zlarimdan yosh tomchilar.
Sevaman deb aldar men; yolg'onchilar,
Yuragimni yo'lbarslarga yediraman.

**Bag'ri-dilim kuydiradi yolg'onlari,
Yonlariga chorlar mohi tobonlari.
Bo'sam agar men bitta qurbanlari,
Yuragimni yo'lbarslarga yediraman.**

Ko'hna dunyo, bu qizlaring buncha go'zal,
Qarab tursam, ko'klarda oy-kuncha go'zal.
Qancha go'zal bo'lsa, aldar shuncha go'zal!..
Yuragimni yo'lbarslarga yediraman.

Hozir ko'zim yumamanu yerga yotib,
Yuragimni sug'uraman qon yig'latib.
Yo'lbarschalar yesin uni kasirlatib -
Yuragimni yo'lbarslarga yediraman.

Kimni suysam suyganimdan kuygan dilim,
Ko'z o'ngimda bo'laqolsin tilim-tilim.
Harom bo'lsin muhabbatsiz ko'rgan kunim,
Yuragimni yo'lbarslarga yediraman!..

SEVGI SADOSI

**Gulim, mehr ko'zda degani yolg'on,
Mening dilimda hech o'chmas yolqinsiz,
Qancha ko'rishmasak shuncha qadrdon,
Qancha olis bo'lsak shuncha yaqinsiz.**

Devona oshiqman, men bir devona,
Ayting, sizdan bo'lak kimim bor yana?..
Siz yo'q chog'imdagi dunyom begona,
Siz yo'q bog'imdagi gullar yoqimsiz.

Siz achchiq qismatim, siz iztirobim,
Siz shirin dardimsiz, shirin azobim,
Siz mening ko'klardan topgan oftobim,
Yerlarda yo'qotgan ko'zmunchog'imsiz.

Yodimda kechagi sho'xliklaringiz,
Ko'ksimni kuydirgan kipriklaringiz,
Siz o'sha - orzusi oydan oydin qiz,
Siz o'sha - kulgusi qo'ng'irog'imsiz.

Siz o'sha ko'zimning kiftida yurgan,
Siz o'sha ko'nglimga ko'ngli in qurgan,
To'kilay deb tilim uchida turgan
She'rim siz, bir umr bitmas ohimsiz...

Tuzalmaydi dardim mening,
O'lsm kerak.
Tuproq bilan og'a-ini
Bo'lsm kerak.

O'lim nima? Bu ham bitta
Sayr, Ona.
O'g'ling qaro yerga ketdi,
Xayr, Ona...

Tuzalmas bu dardim mening,
Umidim yo'q.
Xira shamdek ko'zlarimda
So'nmoqda cho'g'.

Cho'g' nimadir? Cho'g' ham tutab,
Kul bo'ladi.
Inson bir kun o'z mayliga
Qul bo'ladi...

Yuragimni tamom qildim,
Yig'layverib.
Huzurimda ajal turar,
Qoshin kerib.
Men hayotda o'limga tik
Boqib o'sdim...
Qani menga atalgan joy,
Ketdik, do'stim!

XAYOL

Xayol qanday yaxshi,
Akangga o'xshar.
O'ynatar yelkaga ko'tarib olib.
Bu parvoz so'ngida yig'lashing mumkin,
Sog'ingan onangning oldida qolib.

Xayol qanday yaxshi,
Xayol qanday soz.
Qo'shiqlar sochadi bosgan izingga.
Bir kechada borib aytishing mumkin
Izhori dilingni suygan qizingga.

Beg'ubor bolalik yulduzday olis,
Ammo xayol uchun u ham bir qadam.
Tarsillab qovunlar yorilgan poliz,
Sen yolg'iz yotibsan ostida bodom.

Gullari to'kilar o'sha bodomning,
Kapalakday kelib yuzingga qo'nar.
Xayol ham tug'ishgan ukasi odamning -
Qayoqqa yuborsang g'ing demay jo'nar.

Ko'ksida xayoling tursa yig'ilib,
Quyoshni uyg'otib kelsa bo'ladi.
Shoirlarning bari yerda tug'ilib,
Osmonu falakda o'ladi

UYQUDAGI QIZ

Nurxon xotirasiga

Qaro yerga qo'yib bosh,
Bir qizgina uxlaydi.
Ko'zlariga to'lib yosh,
Hur qizgina uxlaydi.

Yotar qurib darmoni,
Mangu uxlар gul yonoq.
Ko'ngli to'la armoni,
Qo'yni to'la qizg'aldoq...

Bu dunyoda hech sendek
Qiz yo'q edi, tur, singlim,
O'zing orzu qilgandek
To'y qilamiz, yur singlim.

Oy yuzingga bir nafas,
Harir ro'mol o'rarsan.

Gul-gul yonib muqaddas,
Chimildiqqa kirarsan...

Qaro yerga qo'yib bosh,
Bir qizgina uxlaydi.
Nurxon otli qalamqosh,
Hur qizgina uxlaydi.

She'riyat,
Ey bevafo sanam!
Qo'llaringdan mahkam tutarman,
Sendan har narsani kutarman,
Sen bir malham,
Sen bir shirin g'am...

Sen borsanki zahmatlarim bor;
Bu dunyoda orttirgan zarim -
Uxlamay qon yutgan kunlarim
Uchun senga rahmatlarim bor!

Ostonangda iting - xayolim:
Yo'ling poylab o'tgayman sening,
Ko'ngling kimda bilmayman sening,
Sen ko'kda qo'l yetmas hilolim.

Ruhim ko'kda,
Tuproqda tanam,
Bag'rimni tilkalar bir og'riq,
Endi baxtim o'zingga bog'liq -
She'riyat, ey bag'ritosh sanam!..

ANDIJON

Qani Bog'ishamol kezgan yellaring,
Qirlarda kekkaygan qirg'ovullaring,
Eslab ezilmasmu endi dillaring,
Nega yig'lamaysan, ahli Andijon?..

Ming yillik chinorlar bo'ldi-ku o'tin,
Qoshu qabog'ingga to'ldi-ku tutun,

Soyingda qoldimi suving bir yutum,
Nega yig'lamaysan, ahli Andijon?..

Rizqu-ro'zni sochib aylanar falak,
Sen esa dalangdan topolmay halak -
Bolangga bergali bitta handalak,
Nega yig'lamaysan, ahli Andijon?..

Nahoringda paxta, shomingda paxta,
Ayvoningda paxta, tomingda paxta.
Oqar og'u bo'lib qoningda paxta,
Nega yig'lamaysan, ahli Andijon?..

Qirq yil chorla, go'rdan chiqmaydi Bobur,
Chiqsa ham bag'ringga sig'maydi Bobur.
Hindu quchog'ida uxlaydi Bobur,
Nega yig'lamaysan, ahli Andijon?..

Qayinzor qa'ridan uzildi bir o'q,
Yurakda dog' qoldi, yurakda bir cho'g',
Cho'lponing bor edi, Cho'lpon endi yo'q,
Nega yig'lamaysan, ahli Andijon?..

Bulbulzabonlaring
Xazon yopdimi,
Dunyo ularning hech
Tengin topdimi,
Muhammad Yusufing
Shoir bo'ptimi?..
Nega yig'lamaysan,
Ahli Andijon?

RAYHON

Rayhon, aylanay rayhoningdan sening,
Oyqaboq go'zalim, joningdan sening.
Kulib ko'klaringdan tushmaysan, qara,
Oy o'tsa uyalar yoningdan sening.

Yetti iqlim aro yetsaki izing,
Tuproqqa to'kilgay tutday xush ising.
Gulga tegsa gulxan paydo qiladur,
Suvga tegsa suvni yondirar yuzing.

Hurlardan hur o'zing, xurshidi tobon,
O'zing Rayhonsanu vujuding rayhon.
Bu yorug' dunyoda sendan suluv yo'q
Mendan bechora yo'q, mendan notavon.

Sen Arshi a'loda jannatiy chashma,
Men yerda yonaman tomchingga tashna.
Ko'klarga qo'lini tutgan qulingman,
Zilolim, uvolim tutgay, adashma...

Rayhon, aylanay rayhoningdan sening,
Oy o'tsa uyalar yoningdan sening.
Kulib ko'klaringdan tushmaysan sen-da,
Menga-da joy yo'q osmoningdan sening.

O'lsamu unutsang menday yigitni,
Yog'ar yo'llaringga afsus-anduhim.
Oq tulporday minih oppoq bulutni,
Uyingning ustidan o'tadi Ruhim...

Unga nima deysan, bevafo yorim?

O'lsamu unutsang menday yigitni,
Qaro tuproq silab yotsa kuragim,
Sen o'choq oldida chaqqan gugurtni
Uchida lovillab tursa yuragim...

Shunga nima deysan, bevafo yorim?

Sen Xudo emassan axir, o'ylanma,
Jonimning rishtasi qo'lida uning,
Ammo Muhammadsiz o'tmaydi kuning,
Kel, mayli men o'lmay, sen ham qiynalma -
Shunga nima deysan, bevafo yorim?..

ONAMGA

Oh, mening ortimdan ovvora onam,
Bir parcha yuragi ming pora onam.
Har baloni ko'rib yorug' dunyoda,
Toshkanni ko'rmangan bechora onam,
Bolang bo'lib bir bor boshlab keldimmi,
Endi men ham senga o'g'il bo'ldimmi!..

Garchi bisotingda «bayram» so'zi yo'q,
Bilaman, kutasan sandal to'la cho'g'.
Menda yurak deganlarin o'zi yo'q:
Men sovg'a hermagan qiz yo'q bu oqshom,
Senga na gul berdim, na shirin kalom,
Endi men ham senga o'g'ilmi, onam?..

Deysan: olislarda omon yursang bas,
Yodingga tushsam goh yo'qlab tursang bas,
Bolam, senga hamma qiladi havas...
Axir, mening dardim She'r emas faqat,
Men mashhur shoirmas - mashhur beshafqat,
Endi men ham senga o'g'ilmanmi, ayt?..

Sha'ningga she'r bitdim. U seni topsin,
Poyingga tiz cho'kib, qo'lingni o'psin.
Undan ham ulug'im borligin ko'rsin,
Men uchun ham aziz holingni so'rsin,
Sensiz g'arib ko'nglim ko'ngilmi, onam,
Endi men ham senga o'g'ilmi, onam!..

LAGANBARDORLAR

Kazzob Stalindan zorlanmang hadeb,
U ham farzandidir bitta insonning,
Bilmogchi bo'lsangiz, qabri qayda deb,
Laganbardorlardan so'rang Cho'lponni...

Otabek Kumushin ko'zlarin yopib,
O'zi ham ortidan qilgach safarlar,

Qodiriy boboning qo'llarin o'pib,
Chohga itargan ham - laganbardorlar.

Ular Iblis bilan tili bir o'rtoq,
Ular Azroilga sodiq choparlar.
Avval Usmonlarni sotib, keyinroq
Faryod ko'targan ham - laganbardorlar.

Yov nadir? Zo'r kelsa o'ldiradi yov,
Bular qon so'rguvchi iskabtoparlar.
Qahhorni qandkasal,
Oybekni soqov
Qilib qo'yganlar ham - laganbardorlar.

Ular ustoziga quldayin kimsa,
Mehribon homisi shogirdlarining.
O'zi o'ldirib, so'ng mozorigacha
Ko'tarib borishar tobutlarini...

Kazzob Stalindan zorlanmang hadeb,
U ham bolasi-da bitta insonning.
Bilmoqchi bo'sangiz, qabri qayda deb,
Laganbardorlardan so'rang Cho'lponni!

1988

DUNYO

Menga boqib miyig'ida kulgan dunyo,
Meni tuproq, o'zni osmon bilgan dunyo,
Seni momom cho'miltirgan yuvib-tarab,
Seni bobom tetapoya qilgan, dunyo!..

Ey, o'tmishdan o'tgan kunin so'ramagan,
O'zbek borsa kim qo'liga qaramagan?
Botirlari qul bo'lishga yaramagan,
Suluvlari bo'yniga osilgan dunyo!

Moziy manim borimni yod etib siylar,
Dilin obod, ruhlarin shod etib siylar.
Shoh G'azzoliy, shoh Tabriziy, shoh Rumiylar...
Chorig'ini yelkasiga ilgan dunyo.

Sen sig'ingan - o'sha jondin ortiq senga
Tojimahal ham bir bohomdan tortiq senga.
Kulma menga, iddaolar qilma menga -
To'qqiz kunda Temur bosib olgan dunyo!

Yuzlaringni yoritgan shu sharq ziyosi,
Dardlaringni aritgan shu sharq ziyosi.
Sinoning etagin o'pib Ovruposi,
Amriqosi Beruniydan qolgan dunyo.

Mening ko'shkim ko'kda - unga yetmaydi qo'l,
Mening ko'rkim ko'ngil, unga eltgay bir yo'l,
Tirikman men, kel istasang muridim bo'l -
Sen Islomdan iymon darsin o'rgan, dunyo!..

SAMARQAND

Samarqandga borsam men agar,
Ulug'bekni ko'rib qaytaman.
U qon yig'lab turar har safar:
Men dardimni kimga aytaman?..

Bag'rimda bo'y yetgan bo'z bolam,
Mergan bolam, lochin ko'z bolam,
Bo'g'zimga tig' urgan o'z bolam...
Men dardimni kimga aytaman.

Sezmay qoldim. O'shanda chog'im,
Yulduzlarda ekan nigohim.
Bilmadim ne edi gunohim...
Men dardimni kimga aytaman.

Qancha g'amga botmagan edim,
Qancha og'u yutmagan edim...
O'z bolamdan kutmagan edim...
Men dardimni kimga aytaman.

Tanim muzlab, goh tosh qotaman,
Men shoh emas, axir, otaman.

Go'rimda ham o'ylab yotaman,
Men dardimni kimga aytaman?..

Samarqandga borsam men agar,
Ulug'bekni ko'rmay kelmayman.
U menga qon yig'lar har safar,
Men dardimni kimga aytaman!

SINGLIMGA MAKTUB

Qachon xat yozgandim senga, bilmayman,
Qofiya bilan band bugun tosh ko'nglim.
Yolg'iz akang bo'lib,
Yoningda yurmayman...
Kechir meni, singlim.
Kechir meni, singlim.

U yoqda shotutlar
To'kilar suvg'a,
Qovunlar yorilar,
Sen yo'l qaraysan.
Tuproq ko'chalarda,
Mushtoq kechalarda,
Yoz - meni sog'inib sarg'aygan maysa.

Umrimni yulqilab,
Yillarim o'tar,
Yurak yig'laydi-yu,
Aytmas dardinji.
Men she'rim qo'lting'lab,
Kun bo'yi izlayman,
Adabiy xodimning bitta mardini.
Biriga qandaydir turoqlar dastak,
Birin o'yantirar hali yoshligim:
Nega bu she'ringiz otlar haqida,
Ularni yoqtirmas, mening boshlig'im!..

Goh to'lib ketaman,
Qanday gap axir.

Qo'ygil meni deyman ey, shirin azob.
Quyoshga termulay,
Yerga bosay bag'ir,
Qo'shiqlar kuylashga boshqa odam top...

Yana qaysar ruhim
Jonimni cho'qir,
Yoz deydì,
Singiljon, qo'rqay nimadan?..
Eng go'zal she'r - Sening yorilgan qo'ling,
Hamma boshliqlarning
Boshlig'i - Vatan!..

U yoqda shotut to'kilat tag'in,
Behilar hidiga to'ladi xonam.
Ayvonda, xirmonda, Andijon tomonda
Kuz - meni sog'inib sarg'aygan onam -
Yig'laydi, bu yil ham kelmadi bolam...

Qachon xat yozgandim senga,
Bilmadim,
Qofiya bilan band mening tosh ko'nglim.
Yolg'iz akang bo'lib,
Yoningda yurmadim...
Kechir, meni singlim,
Kechir, meni singlim.

QIZG'ALDOQ

Qizg'aldog'im, qirdan bo'lak koshonang yo'q,
Kokil yoysang, yerdan bo'lak toshoynang yo'q,
O'ksib-o'ksib turganingda o'zim borib,
Peshonangdan o'pay desam, peshonang yo'q...

Sollonasan kelinchakday boshing egib,
Jayron o'tgan so'qmoqlarga yoshing to'kib,
Qizil yuzing qon dilimga turar tegib,
Meningdek sen g'aribning ham parvonang yo'q...

Qadring bilgan, darding bilgan, ayt, kiming bor?..
Kelib-ketar bahor senga bevafo yor,
Go'zalsanki, senga bari gullar ag'yor,
"Oh" ursang, bir ohing tinglər ostonang yo'q...

Oldingga men borolmasam, o't gunohim,
Bir yo'qlab qo'y, men dunyodan o'tgan chog'im,
Qabrim uzra hilpirab tur, qizg'aldog'im,
Muhammadan bo'lak do'sti devonang yo'q.

O'TINCH

Farg'onamning parivashlari,
Ey, jonimning qarindoshlari,
Bo'yningizga marvarid bo'lsin,
Marjon-marjon ko'zim yoshlari!..

Muhabbatdan aytishib o'lan,
Quvalashib o'sdik siz bilan.
Ketdim keyin bulutday ko'chib,
Qaytay endi qaysi yuz bilan?..

Yodimda sof tuyg'ularingiz,
Jaranglagan kulgularingiz.
Hayotimda bo'lmasangiz ham,
Xayolimda yurdilaringiz.

Siz men uchun o'sha-o'sha sho'x,
O'sha-o'sha erka bo'ldingiz.
Qo'rg'onimga kelmasangiz ham,
Armonimga beka bo'ldingiz.

O'yin dedik bu yorug' olam,
O'yin qildik muhabbatni ham.
Qizlar, o'lan aytib gohida,
Eslab qo'ying Muhammadni ham.

GO'ZALLAR

Go'zallarim, go'zal aldaysiz,
Go'zal hatto - yolg'oningiz ham...
Go'zal - ko'ngil qoldirmog'ingiz,
Go'zal - ko'ngil olganingiz ham.

Olamda yo'q Sizdek ovvora,
Bechoralar ichra bechora.
Go'zal, yo'ldan urib ming bora,
Go'zal, yo'lga solganiningiz ham.

Go'zal, boshda suyib-siypalab,
Ko'ngilning bor mulkini talab,
Avval jonni qiyma-qiymalab,
Go'zal, so'ng uyolganiningiz ham.

Bir boqsam xush - majnuntoldaysiz,
Zaifu bechoraholdaysiz.
Jodu bilan payt poylaysiz -
Go'zallarim, go'zal aldaysiz!..

TURG'UNLIK

Hatto kech kuzda ham tugadi ko'sak,
Serhosil O'zbekiston djalalari.
Dalaga chiqishar ko'tarib etak,
Birinchi sinf bolalari...^{111.111}

Zo'r kelsa go'dak ham birlashur,
Kattalar bilan teng bellashur,
Bo'yi g'o'zadan past, chillashur
Birinchi sinf bolałari.

Sovuq deysizmi?^{111.111}
Ha, qahraton!^{111.111}
Qo'lchalar qo'yinda qo'lgan non,
Ammo nima qilsin, paxta shon,
Birinchi sinf bolalari.

Bari jimjimalar - qog'ozda,
"Zangori kema"lar - qog'ozda,
Paxta terishadi ayozda,
Birinchi sinf bolalari.

Paxta terar yig'lab baxti kulganlar,
Omadi kulganlar, ahdi kulganlar.
Pufak bobolarin Qahramon qilganlar -
Birinchi sinf bolalari.

Faqat bir iltimos, muallimlari,
Burnin artib tursa bo'lgani.
Ishtonin ko'tarib qo'yishsa bas, shu -
Paxtani plani to'lGANI!

Kuzda ketgan turna qaytgandek bahor,
Bir kun huzuringga qaytishlarim bor,
Uzrimni o'zingga aytishlarim bor,
Ey, mening yuragim yo'qlagan diyor!..

Qaytarman, ammo qay ahvolda bilmam,
Balki, unda meni bukkan bo'lar g'am.
Balki, qaytmoq nasib etmas menga ham,
Cho'lponi yodidan chiqmagan diyor.

Garchi bo'ilmasam ham yoningda yo'ldosh,
Dardingga dildoshman, joningga jondosh,
Hattoki, qalandar Mashrabi talosh,
Boburi bag'rige sig'magan diyor.

Oolloh-ku Andijonda qormish loyini,
Nodirang na qilsin xon saroyini?..
Qo'qonga uzatib Mohlaroyini,
Bog'ishamol bo'lib yig'lagan diyor.

Jannatlardan go'zal, ko'hligim mening,
Bag'ring qon qildimi sho'xligim mening,

Balki, bilinmas ham yo'qligim mening,
Balki, meni ham goh yo'qlagan diyor...

Kuzda ketgan turna qaytgandek bahor,
Bir kun huzuringga qaytmoqlarim bor,
Uzrimni o'zingga aytmoqlarim bor,
Ey, yomon ko'zlardan asragan diyor.

YOR-YOR

Osmon olis, osmon jim,
Marhamatda qor yog'ar.
Seni qanday sevardim,
Ko'rolmadi qarg'alar.

Hay-hay o'lan, jon o'lan,
Jonim qaqshar, yor-yor.
Qayda bo'sang sen bilan
Sevgim yashar, yor-yor...

Osmon olis, osmon jim,
Osmon quloq soladi:
Yuragimni sog'inchim
G'ijjak qilib chaladi.

Hay-hay o'lan, jon o'lan,
Jonim qaqshar yor-yor.
Qayda bo'sang sen bilan
Sevgim yashar, yor-yor...

Osmon olis, osmon jim,
Osmon yulduz to'shaydi.
Bilagingda barmog'im
Izi borga o'xshaydi.

Hay-hay o'lan, jon o'lan,
Jonim qaqshar yor-yor.
Qayda bo'sang sen oilan
Sevgim yashar, yor-yor...

YAXSHI

Xurshid DAVRONga

Ey do'stlarim, dunyoda
Ortda qolgan iz yaxshi,
Bulbuli yo'q bahordan
Qumri to'la kuz yaxshi.
Minnat to'la halvordan
Ayyondagi muz yaxshi,
O'pitch ko'rgan paridan
Sepkil toshgan yuz yaxshi,
Ichmasang ham qimiz zo't,
Quchmasang ham qiz yaxshi.

Ey do'stlarim, dunyoda
Ortda qolgan yod yaxshi,
To'qligingda yo'qlagan
Qarindoshdan yot yaxshi,
O'nta nomard do'stingdan
Bitta cho'loq ot yaxshi.

Olisdagi oltindan
Quchoqdagi gard yaxshi,
Vafosi yo'q xotindan
Davosi yo'q dard yaxshi,
G'alamis bergen g'aznadan
Burda arpa non yaxshi,
Qirqta chala mulladan
Bitta musulmon yaxshi.

CHIMILDIQ

Garchi ipak devoring,
Hech kim seni qurban yo'q.
Ammo ikki dunyoda
Sendan baland qo'rg'on yo'q.

Qo'sh yuraklar yog'dusi
O'zing beshak chimildiq.
Bo'y qizlarning orzusi
Shohi to'shak chimildiq.

Kuyov kutgan orziqib
Hayot sendan boshlanar.
Kelayotgan allayu
Bayot sendan boshlanar.

Tilagim shu boylansin
Jon rishtasi joningga.
Yo'lamasin hech bir qiz
Rozi bo'lmay yoningga.

UNUTISH

Otam o'gitlarin unutmoqdaman,
Unutyapman sekin, o'zimni oqlab.
Sen kimning o'g'lisan? Kimning o'g'lisan?
Ortimda imonim yurar so'roqlab...

Men kimni aldadim? Ilk yolg'onlarim,
Soxta tabassumim kimga ataldi?
Menga shuhrat tutgan xushomadlarim
Otamning qabriga tig'day qadaldi.

Otam o'gitlarin unutmoqdaman,
Unutyapman ozg'in yuz, qo'llarini.
Ter hidi anqigan beqasam chopon,
Ketmoni, yaktagi yamoqlarini.

Toleidan mammun jufti halolim,
Tilla tishlarini ko'rsatib kular.
Mening ko'nglim bilan ishi yo'q sira,
Suratimni izlab kitob titkilar.

Men esa otamni unutmoqdaman...

KETAR BO'LDIM

Yor, eshicing ochilmadi men uchun,
Tilingdan bol sochilmadi men uchun.
Uyingdan joy topilmadi men uchun -
Ketar bo'ldim yuziagni bir ko'rolmay...

Keldim desam, joying yo'lak dedilar,
Sevdim desam, tenging bo'lak dedilar.
Sening sevging kimga kerak dedilar...
Ketar bo'ldim yuzingni bir ko'rolmay...

Kuyma, yorim, kuydirmagin, kuyma, yor,
Bir yaxshiga bit yomon har joyda bor.
Ikki yaxshi yashnagan joy qayda bor?..
Ketar bo'ldim yuzingni bir ko'rolmay...

Derlar: Jon sog' bo'lsa jahon topilgay,
Bir parcha yer, parcha osmon topilgay,
Lekin qayda sendek jonon topilgay,
Ketar bo'ldim o'zingdan bir so'rolmay...

Yor, eshicing ochilmadi men uchun,
Tilingdan bol sochilmadi men uchun,
Uyingdan joy topilmadi men uchun,
O'tar bo'ldim yuzingni bir ko'rolmay.

SOG'INDIM

Toshkanda... tog'larni sog'indim,
Yashil o'tloqlarni sog'indim.
Suv bo'yiga chordona qurgan
Momoqaymoqlarni sog'indim.
Kechagina yomg'irda ivih,
Yurar edim kapalak quvib,
Shudringlarga yuzimni yuvib...
Bolalik chog'larni sog'indim.

Toshkanda tong shunday boshlanar:
Quloq yirtar baland poshnalar,
O'zim tashna, menga tashnalar -
Yalangyoqlarni sog'indim.

Yashirib ne qildim sizlardan,
Lola yonoq, hilol yuzlardan,
To'ydim tillobarmoq qizlardan,
Qo'lli qadoqlarni sog'indim.

Bilganimni bilgancha bildim,
Yo'qdan borin binolar qildim,
Shahar keng deb, zinolar qildim,
Uzoq-uzoqlarni sog'indim!..

Aldovlarga qoldim o'rganib,
Qo'rqib qoldim ko'ngil bergani,
Kelganim yo'q Seni ko'rgani -
Zilol buloqlarni sog'indim!..

KO'KLAMOYIM

Ozod SHARAFUDDINOVga

Sochimda oq, men bahordan o'tindim:
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chimdim.
Qor qo'ynda seni qo'msab o'kindim,
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chimdim.

Ko'nglimga ko'k binafshalar sochilsin,
Kokiliga tolpopukdan soch ilsin,
Boychechakka borar yo'llar ochilsin -
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chimdim.

Fasl boshi, ham oxiri o'zingsan,
Majnunlarning yo'ldoshi ham o'zingsan.
Laylilarning sirdoshi ham o'zingsan,
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chimdim.

Kel-da endi sog'intirmay odamni,
Sen yo'g'ingda bir g'am bosdi yelkamni,
Qorlar kurab ko'mib keldim otamni...
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chimdim.

Ko'king bilan kiyintiray dalamni,
Oyog'yalang suyuntiray bolamni,
O'zing olgin ko'ksimdag'i alamni,
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chimdim.

Ginam yo'qdir kuzda ketgan oqqushdan,
Iymanmasin qayta eshik qoqishdan.
Qumri bilan birga chiqdik biz qishdan,
Ko'klamoyim, ko'kingdan her bir chimdim.

Jon ustida asrab yuray ko'kni men,
To'yib-to'yib ko'zga suray ko'kni men.
Yana senga yetamanmi-yo'qmi men,
Ko'klamoyim, ko'kingdan her bir chimdim.

Dil yayrasin dala-dashting yasanib,
Yalpizlaring suv bo'yiga yastanib.
Ikki misra bayt bitay bir maqtanib,
Ko'klamoyim, ko'kingdan her bir chimdim.

ONAMGA XAT

Men sizni o'ylayman shomu saharda,
Ona, sog'insam ham bora olmayman,
Tunlari charog'on shunday shaharda,
Hech kimga ko'nglimni yora olmayman.

Men siz aytgandayin hammani sevdim,
Hammaga ishondim, mana oqibat:
O'z do'stim uyiga ko'mildi sevgim,
Kun ho'lib ko'ksimni kuydirdi nafrat.

Boshimdan o'tgani ko'kka ham ayon,
Yulduzlar qiqirlab kular oqbadan:
Men - zangor yaylova olis, bepoyon,
Uyuridan ajrab qolgan qulunman...

Mana, ketayapman tosh yo'lida ko'zim,
Qadamim moshinlar yo'rg'asiga mos.
Yig'lasam yupatib o'zimni o'zim,
Pishqirib qo'yaman toychoqlarga xos.

Va sizni o'ylayman shomu saharda,
Ona, sog'insam ham bora olmasman.

**Tunlari charog'on shunday shaharda
Hech kimga ko'nglimni yora olmasman...**

**Ha, sevgi haqida. U dilga ne zeb,
Kuyinmang, ne iloj qilmasa nasib.
Baxtimga hamisha Siz sog' bo'ling deb,
Sog'ingan o'g'lingniz - Muhammad Yusuf.**

HAZIL

**Mening haqimdag'i g'iybatlar yolg'on,
Ixtiyor o'zimda bo'lsa qaniydi.
Sharob ichish menga Xayyomdan qolgan,
Ichmasam ul zotning ko'ngli ranjiydi.**

**O'zim boshladimmi, o'zim qilgum bas,
Do'stlarim behuda zavolim izlar.
Agar qirqa kirmay o'lsam, may emas,
Meni harob etgay bevafo qizlar!..**

OTA UY

**Uch qutbga uch gulni
Kuzatishdi bir kunda.
Uchta opa-singilni
Uzatishdi bir kunda.**

**Uch mahliqo, uch tobon,
Yurishardi yarqirab.
Uchalasi uch tomon
Uchib ketdi chirqirab.**

**Surnay yig'lar, ko'ngillar
Naydek nimta-nimtadir.
Endi opa-singillar,
Ko'rishadi yilda bir.**

**Biri Shoshda,
Biri O'sh,
Biri endi Boysunda.**

Hol so'raydi qizlardan
Ona bo'lib oy tunda.

Xush qol endi, bolalik,
Ko'hna chorbog' xush qolgin.
Uch qizingni o'tniga
Bozordan uch qush olgin...

Xush qol endi, Ota uy,
Hushlaringdan ayrılma.
Qizlaringdan ayrilding,
Qushlaringdan ayrılma.

Keng qasrga kelin bo'l,
O'z oshyoning bo'lakcha.
Ota uyin oldida
Bu dunyo bir ko'lmakcha...

Uch qutbga uch gulni
Kuzatishdi bir kunda.
Uchta opa-singilni
Uzatishdi bir kunda.

Qiz bolaga qismat shu -
Buni boshqa atash yo'q.
Bir hovlida tug'ilib,
Bir hovlida yashash yo'q...

BAG'TISHLOV

Bu shunday bevafo dunyo, bu hayot,
Tunda tug'ishganing tongda yetti yot.
Balki taqdir shudir, balki shu qismat,
Bizdan rozi bo'ling, ruhi notinch zot.

Boringizda bizga bo'ldingiz Ota,
Yo'g'ingizda yo'qdan qidirdik xato.
Beayb Parvardigor, deydilar hatto,
Bizdan rozi bo'ling, ruhi notinch zot.

Hali tuprog'ingiz sovimay turib
Ruhingiz qaqshatdik qabringiz surib.
Chig'atoy tomonga ketdingiz yurib,
Bizdan rozi bo'ling, ruhi notinch zot.

Qabr uchun dildan joy topganlar boshqa,
Qul bo'lib shoh qo'lin o'pganlar boshqa,
O'lganning ustidan tepganlar boshqa,
Bizdan rozi bo'ling, ruhi notinch zot.

Sizni alqaganlar bir xalq, bir dengiz,
Sizni qarg'aganlar jo'ralariningiz.
Sizni ado qildi to'ralariningiz,
Bizdan rozi bo'ling, ruhi notinch zot.

Sizni zolim desak ranjiradolat,
Farishta desak ham ko'ngil hijolat
Insensiz - omadli, gohi beomad,
Bizdan rozi bo'ling, ruhi notinch zot.

Kim bo'lmanq sizdan shu yurt bizga meros,
Yo'qchilik, to'qchilik, ne bo'lsa ro'y-rost.
Endi tuproq sizni aylasin e'zoz,
Bizdan rozi bo'ling, ruhi notinch zot!

Shohlarga hamisha xushomad zomin,
Ko'zin yog'in yalab, sotarlар nomin.
She'rim ham tugadi, o'zbekcha omin,
Bizdan rozi bo'ling, ruhi notinch zot.

IYMON QO'SHIG'I

Umrning har kuni bayrammas, to'ymas,
O'char oqshomi bor oldinda chiroq.
Ko'ylagingga qarab jannatga qo'ymas,
Ajrim bo'lar bir kun savobu gunoh.
Cho'yan doshqozonga shayton o't qalar,
Qutqarsa bir kuni iymon qutqarar...

Noming tutgan tuzing totmay ketmasin,
Uyingda har kuni yostiq yetmasin.
To'rtta mayizingni qush ham yeb ketar,
Uying chetlab odam zoti o'tmasin.
Berk saroymas - ochiq ayvon qutqarar,
Mezbonni bir kuni mehmon qutqarar...

Xor qilib o'ynama har kimsa boshin;
Yigit g'aribiyu qizning yuvoshin.
Ko'shkingni ko'z-ko'zlab, zaringdan so'zlab,
Mustarin ko'zidan oqizma yoshin.
Kimda - ketar husn, kim xush bo'y tarar,
Lolani hokisor rayhon qutqarar.

Botinda boshqayu zohir bo'laksan
Avval boshqa eding, oxir bo'laksan.
Ko'ngil ko'chasida, ko'ngil ko'yida,
Kelgan izga qaytib horar yo'laksan.
Bunda har kim o'zi qul - jon qutqarar,
Na shoh, na hakimi Luqmon qutqarar.

QO'YAVERING...

Shamol sabab, ehtimol,
Tunda eshik g'ichirlar.
Boshlanadi, qishloqda
Shunda pichir-pichirlar.

Sizga nima?
Siz uxlang,
Hech ishingiz bo'lmasin.
Kimda kimning ko'ngli bor,
Qo'yavering, o'ynasin...

Oshiqlarim - oshiqdek
Mayli, ko'ngil xushlashsin,
Ikki oshiq istasa,
Shamol bilan mushtlashsin.

O'ksimasin qiz qalbi,
Yigit rayi o'lmasin,
Kimda kimning ko'ngli bor,
Qo'yavering, o'ynasin...

G'iybat qilmang yigitni,
Uyaltirmang qizni ham.
Shunday o'tli muhabbat
Siylar bo'lsin sizni ham.

Bir sovuq so'z tufayli,
Sevgi bog'i so'lmasin.
Kimda kimning ko'ngli bor,
Qo'yavering, o'ynasin...

Ilk sevgidan iymanib,
So'ng pushaymon yonsa ham,
Sepli qizga suykanib,
Epli qizdan tonsa ham.

Nasib etmay yor vasli,
Endi hajri qiynasin!..
Kimda kimning ko'ngli bor,,
Qo'yavering, o'ynasin...

Ikki yorti bosh uzra
Porlasin ishq quyoshi.
Qizga hayo, yigitning
G'urur bo'lsin yo'ldoshi.

Diydoriga bir-birin
Termulishib to'ymasin.
Kimda kimning ko'ngli bor,
Qo'yavering, o'ynasin.

Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor,
Toshlarni yig'latgan dostonlaring bor,
O'tmishingni o'ylab og'riydi jonim,
Ko'ksing to'la shahid o'g'lolnaring bor.

**Bag'rim o'tar bir o'y bahor ayyomlar,
Oy borgan yoqlarga termulib shomlar.
Aybin bilmay ketgan Akmal Ikromlar,
Fayzullodek mardi-maydonlaring bor...**

**Yurtim, ko'nglingdek keng osmonlaring bor,
Yulduzni yig'latgan dostonlaring bor.
Osmonlaringdan ham diydoringga zor,
Jayrondek termulgan Cho'lponlaring bor.**

**Qo'ling qadog'iga bosay yuzimni,
Onamsan-ku, og'ir olma so'zimni.
Qayinbarglar yopib qaro ko'zini
Olislarda qolgan Usmonlaring bor.**

**Alhazar, alhazar, ming bor alhazar,
Ana, yurishibdi kiyganlari zar,
Qodiriyni sotib shoir bo'lganlar -
Mehrobingdan chiqqan chayonlaring bor...**

**Qurbaning bo'layin, ey onajonim,
Sening faryodlaring, mening fig'onim,
O'tmishingni o'ylab o'rtanar jonio
Aytsam ado bo'lmas dostonlaring bor.**

UZR

Nozimaga

**Shuhratga o'ch bo'lsam kerak men gumroh,
Yolg'on bo'lsa kerak dilda nolam ham.
To'pori baytlarim bitar paytim goh
Ko'zimga ko'rinxay qolar bolam ham.**

**Olamni erkalab erka so'z izlab,
Bolamni erkalab bir so'z aytmayman.
Mushukday suykalib kelsa ham muzlab,
Betidan bir o'pmay uydan haydayman.**

Qalam ushladimmi, demak - o'yin bas,
Yayrab ocholmaydi gul dudog'ini.
Bundoq yurak yutib so'rasha olmas,
Xonamda qoldirgan qo'g'irchog'ini.

Burchak-burchakda jim tortishar burun,
Bilmam qanday o'y-u xayol ichida.
Tuzsiz she'rلарим deb shirindan-shirin,
Bolalarim yurar oyoq uchida...

Ular she'r yozmasin hech menga o'xshab
Menden nafi ko'proq tegar elimga.
Shoh asar bo'lса ham tupurdim o'sha -
Bolamni yig'latib yozgan she'rimga!

OTA

Yusuf otaga

Armonim bor, bu dunyoda armonim bor,
Qoq dalada o'tlar bosgan o'monim bor.
Qizg'aldoqday boshim egik bu makonda,
Yoshin yashab o'tmagan otajonim bor.

Ota desam, bag'ri-dilim yonaverar,
Kunim yonar, oyu yilim yonaverar,
Mozoriga qo'ygan gulim yonaverar,
Tutunlarga to'lib ketgan osmonim bor.

Esaversin jannatlardan kelgan nasim,
Momo yerim, o'zingsan eng muqaddasim,
Bag'ringda jim tinglab bu tun jon nafasim,
Ruhimni allalab yotgan jahonim bor.

Odam bo'lib bir odamni tushunmaslar,
Ko'zingda yosh ko'rib ham goh o'kinmaslar,
Bosgan izim poylab yurgan ey, nokaslar,
Qabrdan qo'l cho'zib turgan qalqonim bor...

Men otamdan qolgan erkin sado-sasman,
Qonimga yot navolarga qayrilmasman,

O'lgunimcha endi undan ayrilmasman -
O'z otamdek bo'lib qolgan imonim bor.

Armonim bor, hu dunyoda armonim bor,
Keng dalada gullar bosgan o'rmonim bor,
Qizg'aldoqlar bosh egib qon yig'lab turgan
Bu makonda mening ham nurjahonim bor.

PALAXMON

Osmon yerga engashib,
Bulut sog'di kun bo'yı,
Yolg'onchi yor to'yida
Yomg'ir yog'di kun bo'yı.

Yomg'ir emas, bu halqob
Kelinchak ko'z yoshidir.
Yig'lama yor, qiz bola
Palaxmonning toshidir.

Qayg'urmagil qo'y, chorboq
Aylanamiz, yur, do'stim,
Peshonang shu ekan, bu -
Taqdir, dedi bir do'stim...

Taqdir emas, ayirgan,
Yorning qalam qoshidir.
Qolaversa, qiz bola
Palaxmonning toshidir.

Egilmanan yerlarga
Egib yigit boshimni,
Palaxmon-yeys qaylarga
Otting yoqut toshimni!

IQROR

Shoirlik men uchun aslo orzumas,
Shu ham ish bo'ldimi yigit boshimga.
Hamma shoир zotin yig'sa - arzimas
Onamni sog'inib to'kkan yoshimga.

**Ana, ular qilar bulbullarga do'q:
«Ey qush, bu bog'larning men bulbuliman!»...
Shoirlar bilan hech oshnoligim yo'q.
Men yorug' duniyoda ko'nglim quliman.**

**Ammo yuragimni qiynar bir azob,
Qo'y desam qo'ymaydi, tutqazar qalam,
Men ketmon so'rasam - tutadi rubob,
Kuylayman jonimdan o'tganda alam.**

**Osmonga qarasam ko'rinar tuproq,
Maysaga termulib oyni ko'raman.
Bu qanday ko'rgulik, bilmayman, o'rtoq,
Men qachon dalada bug'doy o'raman!..**

**Shoirlik men uchun aslo orzumas,
Shu ham ish bo'ldimi erkak boshimga.
Hamma shoir zotin yig'sa - arzimas
Uyimni sog'inib to'kkан yoshimga.**

**Ana ular salqin xiyobonlarda
Entikib yozishar kelajakka xat.
Oqihat haqida hayqirishar va
Abdulla Orifni qilishar g'iybat...**

**Bo'ldi.
She'r yozmayman.
Men endi odam,
Oddiy odam bo'lib yashay boshlayman.
Ko'nglimga achinib agar yozsam ham,
Tunda yozib, tongda o'tga tashlayman!**

AJAB DUNYO

**Ikki buyuk shoir, ikki musofir -
Navoiy Hirotda, Qobulda Bobur.
Sizni o'ylatmasmi bu jumboq, bu sir,
Navoiy Hirotda, Qobulda Bobur...**

Buni tasodifmi atayin, aytinq,
Qitmir qismat o'yni deyinmi yo bir?
Ko'rib qo'y, Turkiston, ikki shoh bayting -
Navoiy Hirotda, Qobulda Bobur...

Jafo etganga ham jabr etmadik,
Gadoni siyladik goho, Xudo bir.
Daholarimiz qadriga yetmadik -
Navoiy Hirotda, Qobulda Bobur...

Yer yonar jahannam afg'onda yal-yal,
Kulrang ko'rpa yanglig' bulut yonodus.
Yonar ne tiklagan bo'lsa bir mahal -
Navoiy Hirotda, Qobulda Bobur...

Ikki buyuk hikmat, ikki xush zabon,
Ikki buyuk dildan yo'qdir sado bir.
Biz g'animga bejang topshirgan qo'rg'on -
Navoiy Hirotda, Qobulda Bobur...

Uchrashishmagandi ular hayotda,
Yoturlar yonma-yon ikki lahatda.
Nima deysiz endi, hayot-hayot-da -
Navoiy Hirotda, Qobulda Bobur...

OTA

Ota, g'o'zangizni suv bosib ketdi,
Chumchuq vayron qildi jo'xoringizni.
Mening kitoblarim bir jambilbargcha
Yozolmadi lekin xumoringizni...

Televizorlardan jilmaymoq nima,
Men she'rlar o'qidim, ko'nglingiz to'lmedi.
Oqshom oq daladan bir bog'lam somon
Keltirgan bolacha nafim bo'lmedi.

Qirq yillik oskolka qiynadi bir kun,
Siz yotib qoldingiz, bo'ldi keragim.

Uchib borolmadim samolyot bo'lib
Ota, deh osmonga tegih kuragim.

Keyin siz ketdingiz. Bu yorug' dunyo -
To'polon daryoni menga qoldirib.
So'nggi o'tinchingiz ayladim baho
Ko'zlarimni to'sgan sochimni oldirib!..

Mehrimni boshimga uraymi endi,
She'timni boshimga uraymi.
Mening sog'inchimni yutib og'rinnmay,
Yorilmay yashagan yurak-yurakmi?..

Ota, yuzlarimni suv bosib ketdi,
Ko'zyosh payhon qildi ko'nglim gulzorin.
Mening kitoblarim,
Mening she'lilarim -
Qadringiz bilmagan yillarim zori...

YOG'OCH BESHIK

Yelkadan sirg'alib kunduzgi tashvish,
Yelkadan sirg'alib ko'rpalari-da,
Supachada uxlар erkak va ayol
Yog'och beshik o'rtalarida.

Xo'rozlar bayotin avji - tongotar,
Suyumli nigohi erkalarida,
Nonushta qiladi erkak va ayol,
Yog'och beshik o'rtalarida.

Qaydadir traktor guvillar. Endi
Topgan-tutganlari o'rtalarida.
Dalaga jo'naydi erkak va ayol,
Yog'och beshik o'rtalarida.

QIZLAR QO'SHIG'I

Qiz yo'q uyda sarin sabo esmaydi,
Qiz yo'q uyda jambil-rayhon o'smaydi.
O'g'illarning ota bilan ishi yo'q,
Qiz otasin har qadamda eslaydi.
Ko'zlariga surgay yurgan izingiz,
Qay o'g'ildan kamdir, ayting qizingiz...

Qiz yo'q uyda tonglar erta otmaydi,
Tomda oftob, ayvonda oy yotmaydi.
O'g'il qanday do'st bo'ladi, bilmadim,
Qiz do'st bo'lsa, siringizni sotmaydi,
Og'ir kunda jovdiratmas ko'zingiz,
Qay o'g'ildan kamdir, ayting, qizingiz,

Umr daryo, tolega kim kafildir,
Qizning borar joyi bo'lak sohildir.
Qiz dardiga yetmaganlar g'ofildir,
Qiz bor uyda yorug' bo'lar yuzingiz,
Qay o'g'ildan kamdir, ayting, qizingiz,

Dunyo ko'rki - shu ko'zları shahlolar,
Qizlar bilan chamanzordir sahrolar.
Bir qayrilib Qaysni Majnun aylagan.,
Tohirlarni Tohir qilgan - Zuhrolar,
Qiz tufayli butdir rizqu ro'zingiz,
Qay o'g'ildan kamdir, ayting, qizingiz,

Ayting, kimning paymotqasi to'l'magan,
Qiz bor - ota yot bag'rida o'l'magan.
O'g'lim yo'q deb o'kinganlar - johillar,
Hatto Payg'ambarning o'g'li bo'l'magan!...
Bilib ayting aytganda har so'zingiz,
Qay o'g'ildan kamdir, ayting, qizingiz?!...

"BOSMACHILAR"

Olmoslardan keskir edi shamshiringiz,
Tutun bo'lib to'zib ketdi taqdiringiz,
Ming yigitga arzirdingiz har biringiz,
Ot o'ynatib yurmadingiz, "bosmachilar!.."

Tuproq to'shak bo'ldi, bolish egar boshda,
Jaloliddin kabi mudom jahongashta,
Umringizning yarmi o'tdi tog'u toshda,
Ne kunlarni ko'rmadingiz, "bosmachilar".

Qo'rg'oshinga qalqon bo'ldi o't ko'kraklar,
Kafan bo'ldi qonga botgan oq yaktaklar,
So'nggi makon bo'ldi, ba'zan chakalaklar,
Odamday ham o'lmaidingiz, "bosmachilar..."

Tushunmayin kim qarg'adi, kimlar sotdi,
Ko'nglingizda alam, ko'zda yoshlari qotdi,
Ortingizdan goh bolangiz toshlar otdi,
Yosh deb, gina qilmadingiz, "bosmachilar..."

Uyingizda sizni kutdi, kel, deb to'ram,
Kelinchaklar kokillari taram-taram,
Ko'ngilga yor sig'armidi yurtda qaram?..
Jangohhlardan jilmadingiz, "bosmachilar..."

Kengashsangiz tor dunyolar keng bo'lardi,
Ergash yoqa bo'lsa, Shermat yeng bo'lardi.
Birlashsangiz kim ham sizga teng bo'lardi,
Nechun ahil bo'lmaidingiz, "bosmachilar..."

Bosmachimish... Bunday demish qay bema'ni,
Tutmaydimi bir kun uni beklar qoni...
Hamma sizdek o'z yurtini suysa qani!
Behuda qon to'kmadingiz, "bosmachilar..."

Siz yo'q, bunda ko'tarildi darspardalar:
Otdan tushdi sariq mo'ylov sarkardalar,
Buxoroni to'pga tutgan sharmandalar...
Afsus, afsus, ko'rmadingiz, "bosmachilar..."

Erkli elda sizni eslash naqadar xush,
Sizga haykal qo'ysa arzir maydonlar bo'sh,
Oq yaktakda, arg'umoglar minib oqto'sh
Mundoq ko'krak kermadingiz, "bosmachilar..."

Subhidamda she'rim bitdi, ko'zim tinib,
Poyingizga bordim ko'nglim bir o'ksinib,
Turing endi hobo desam, siz xo'rsinib
Jilmaydingiz, turmadingiz, "bosmachilar..."

Qayga tarqab ketgan bo'l mang, qay zamonda,
Sizning asov qoningiz bor bizning qonda.
Unutmagan sizni hech kim Turkistonda,
Xonlarga teng hurmatingiz, "bosmachilar..."

Olmoslardan keskir edi shamshiringiz,
Tutun kabi to'zib ketdi taqdiringiz.
Ming yigitga arzirdingiz har biringiz,
Ot o'ynatib yurmadingiz, "bosmachilar..."

QIZILGUL

Qizilgul, qo'ynimda uxlab yotgan gul,
Qo'llari bo'ynimda, uxlab yotgan gul.
Kiprigi ko'ksimga tig'dek botgan gul,
Senga nima kerak yana, ey, ko'ngil...

Yonimda sollanar qirq tillo tokil,
To'lgonar, tovlanar qirq tillo kokil.
Jonimdan aylanar qirq tillo kocil,
Senga nima kerak yana, ey, ko'ngil...

Beshikni titratib chinqirar ohim,
Yuzlari oppog'im, ko'zi munchog'im.
Bu yorug' dunyoda o'chmas chirog'im,
Senga nima kerak yana, ey, ko'ngil...

Jonimni cho'qiydi bir qush kelib jim,
Men seni bilmayman, ey qushcha, sen kim?..
Sen menga hech kimmas, men senga hech kim,
Senga nima kerak yana, ey, ko'ngil...

Qizil gul, qo'ynimda uxlab yotgan gul,
Qo'llari bo'ynimda, uxlab yotgan gul...
O, mening ko'ksimda yig'lab yotgan gul,
Ko'ngil, senga yana ne kerak. ko'ngil?..

MANZARA

Bedapoya to'ridagi justin qidirib,
Sayray-sayray jimiб qoldi bedana dilgir.
Suvsumbulni va'dasiga ko'mib, ko'ndirib,
O'ynatgani olib ketdi irmoq qaygadir.

Qir tomondan poda qaytib kelarkan qator
Kumush sohil bo'ylariga changlar yastanib,
Qishloqning eng chekkasidan bahaybat chinor
Ufq tarafga qarab qo'ydi xavotirlanib.

Quyosh osmon etagiga osilib mana,
Bir xo'rsinib, ko'zdan g'oyib bo'ldiyu keyin -
Qo'shni qizning havasini keltirib yana
Tolko'chaga suv sepishni boshladi kelin...

QARI QIZ

Qariqiz,
Qariqiz, senga bir savol,
Yelkangni to'ldirib soching yig'larmi?
O'ttizdan keyingi tonglari malol,
Kunlar ko'kragingga botgan xanjarmi?..

Qariqiz,
Qariqiz, senga bir savol,
Neñarni o'ylaysan kechalarda sen?
Nimalar haqida surasan xayol,
Kelinchaklar o'tgan ko'chalarda sen?..

Sen saratonda ham yashnagan bahor,
Sen zimistonda ham chaqnagan nahor.
Yuzlaring g'azalu ko'zlarling g'azal,
Sening kuygan ko'ngling guldan-da go'zal!

Shunday go'zalsanki, yorug' dunyoda
Seni bir ko'rib sevmagan qolmagan.
Ammo birontasi botinib kelib,
Yurak izhorini ayta olmagan...

Go'zal qiz,
Asal qiz,
Senga yo'q savol,
Sen - tengi topilmay o'tayotgan hilol!

SANAM

Bir qarab qo'ysang nadir
Bizga ham goho sanam.
Menga sensiz beqadr
Dunyo, sanam, dunyo, sanam.

Sen o'zing shamsu hilol,
Kuydirgi yor, sohibjamol.
Sensiz ul osmonda yo'q
Ma'no, sanam, ma'no, sanam.

Ko'zlari jayron o'zing,
O'z husniga hayron o'zing.
Tengi yo'q, timsoli yo'q
Zebo sanam, zebo sanam.

Boq, ajab g'avg'odamiz,
Sevgi degan sahrodamiz.
Qays o'zimu sen ekan
Laylo sanam, Laylo sanam...

Bir qarab qo'ysang nadir
Bizga ham goho sanam.
Menga sensiz beqadr
Dunyo, sanam, dunyo, sanam.

SHUKUR DEYSAN SEN QACHON?

Ta'magirmi tortqilab,
Nafsi qo'ymas deydilar.
Nokas o'zi to'ysa ham,
Ko'zi to'ymas deydilar.

Boq bir, yorug' olamga -
Kimlar zo'rg'a kun ko'rар.
Odamlar bor, bog'dagi
Bulbuldan ham pul so'rар...

Yolg'on dunyo - bu dunyo,
Arzon dunyo - bu dunyo.
Ne-ne hokim, beklardan
Qolgan dunyo - bu dunyo.

OQ RO'MOL QIZLAR

O'tib turing ko'chamdan goh-goh,
Ko'ngil yayrar ko'rganim sari.
Ey gulbadan, ey kiyiknigoh,
O'zbekoyim nabiralar -
Oydin qizlar, oyjamol qizlar,
Oydan tushgan oq ro'mol qizlar!..

Yerdanmi yo ko'kdan so'raymi,
Poyingizda jonim beraymi?
Sizni shunday ko'rib quvonchdan
Yorilmagan yurak-yurakmi?..
Oydin qizlar, oyjamol qizlar,
Oydan tushgan oq ro'mol qizlar.

Qonimda-ku abad-azalsiz,
Ammo yoddan chiqqan g'azal - siz.
Daryolarning ortida qolgan
Afsonaviy Tojimahalsiz.
Oydin qizlar, oyjamol qizlar,
Oydan tushgan oq ro'mol qizlar.

Yursa yo'lga yog'dular izi,
Parilarga orzular izi.
Siz - onamning yorishgan yuzi,
Siz - otamning yo'qotgan qizi...
Oydin qizlar, oyjamol qizlar,
Oydan tushgan oq ro'mol qizlar.

O'sma o'pgan qoshmi bu zuluk,
Buncha poksiz, bunchalar suyuk?
Siz borsizki, muhabbat ham bor,
Siz borsizki, Muhammad buyuk.
Oydin qizlar, oyjamol qizlar,
Oydan tushgan oq ro'mol qizlar.

AMIR TEMUR

*Qirq birinchi yil, saratonning o'n sakkizida
Buyuk Jahongirni qabridan qo'zg'atishgan.
Xo'sh, oqibati ne bo'ldi...*

Jahongirning qabrin ochgan kazzoblar,
Biri olim, yana biri arboblar,
Xondek yashab o'tdilaru olamdan,
Amir Temur ruhi meni azoblar.

O'shal kun sen qayda eding, bolam, der,
Qulog'ingga yetmadimu nolam, der.
Meni qo'zg'ab nima topdi olam, der?..
Amir Temur ruhi meni azoblar.

Tirik ersam tinmasdi-ku yarog'im,
O'lik jondin na istarlar, qarog'im.
Qo'llim qayda der, qayda bosh chanog'im,
Amir Temur ruhi meni azoblar.

Bu qandayin ko'rgutlik, yo rabbanch,
Yovuz yotdan yer ostida yo'q panoh,
Bobur qayda der, qayda der Mironshoh,
Amir Temur ruhi meni azoblar.

Dunyo topdim deydi, dunyo yig'madim,
Men el uchun ot ustida uxladim,
Nahot endi o'z go'rimga sig'madim,
Amir Temur ruhi meni azoblar...

Men ne qilay,
Men bir ojiz bandaman.
Ruhlar bilan bir jonu bir tandaman,
Uzr so'rab har kun Samarcanddaman,
Amir Temur ruhi meni azoblar...

XIRMONDAGI BOLA

Bunday qaramagin, chaqaloq,
Men halol odamman har holda.
Chayqalardi har yil kuzda mening ham
Belanchagim shu bukri tolda.

Yorilgan qo'llarga termulib yurib,
Shu yalpiz dalada men ham bo'y yetdim.
Keyin she'r yo'qladi tushimga kirib,
Keyin o'zim yo'qlab Toshkentga ketdim.

Na Oybek bor edi,
Na G'afur G'ulom.
Mirtemir yo'q edi,
Usmon Nosir ham...

Navoiy satriga termulib yurib,
Tuydim jamolini bu ko'hna elim,
Keyin sen izladning tushimga kirib,
Keyin o'zim izlab yoningga keldim...

Bunday qaramagin. Bunday qaramagin.
Sen huddi o'zimsan, xirmondagi bola.
Mening mayli shodon, mening mayli g'amgin
Eng go'zal so'zimsan, xirmondagi bola!

**Men keldim shul shaffof so'zimni topib.
Men bildim, yurakdan Vatanni sevmoq -
Belanchak osilgan tollarni o'pib,
Chaqaloq ko'ziga halol termulmoq...**

OQ TULPOR

**Oq tulporim bor edi,
Beklar unga zor edi.
Og'aynilar, ot menga
Ham do'stu ham yor edi.**

**Yolin o'psam tiz cho'kib,
Kaftimdan suv ichardi.
Chux, desam yer changitib,
Osmonlarga uchardi.**

**Uyimizga bir oqshom,
Qarindoshlar to'lishdi.
To'y bahona otimdan
Ayirmoqchi bo'lishdi.**

**Otam, yigitsan, o'g'lim,
Uylanmasang, or, dedi.
Qiz yarashar quchoqqa,
Otga nima bor, dedi...**

**Ot oldidan boshlandi
Chimildiqqa yo'lakcha.
Kechir, yorim, na qilay,
Otga mehrim bo'lakcha...**

**Qoldim ikki o't aro,
Go'shangada - dildorim.
Kelin kelgan kechadan
Arazladi tulporim.**

**Bormi bizdek oshiqlar,
Bahorimda kuz yig'lar.**

**Qizni o'psam, ot yig'lar,
Otni o'psam, qiz yig'lar.**

**Bir bor o'psam xotinni,
Uch bor o'pdim otimni...
Jonnı qiyab yashadim,
Kimga aytay dodimni.**

**Yordan kechdim otni deh,
Elga bo'ldim ermaklar.
Qaydan bilsin ot qadrin,
Ot minmagan erkaklar!?**

INSHOOLLOH

**O'zbekiston, bo'yi-basting ko'rsat endi,
Pahlavonim, yetdi senga navbat endi,
Olam uzra hilpirasin abad endi.
Sohibqiron Temur tug'i - yashil bayroq,
Inshoolloh!**

**Erk degani o'zi kelib eshik qoqmas,
Jon chekmasang osmonlardan omad yog'mas,
Qatoringda botirlaring bo'lsin og'mas,
Gurkirasin Alpomishlar o'tgan tuproq,
Inshoolloh!**

**Qadim Oltin beshik avlodning maskanisan,
Alisherlar, Ulug'beklar Vatanisan,
Yashnagani - o'z asliga qaytganjsan,
Turon yurtda yonsin qayta so'ngan chiroq,
Inshoolloh!**

**Alla aytsang ayvoningda uxlар quyosh,
Senga mudom iymon yo'ldosh, islom yo'ldosh,
Bor bo'lsin shu qirq o'rim soch, o'smali qosb,
Oq yaktagu beqasam to'n, shohi belbog',
Inshoolloh!**

Totuv yurtda yantoq o'zin tog' aylagay,
Bir-birini qo'llagan el kam bo'lmagay,
Bolalari Turkistonni bog' aylagay,
Abad yashnar, xazon bilmas endi bu bog',
Inshoollo!

ZAYNAB QO'SHIG'I

Tengim boshqa, dedi yor,
Topdim desam tengimni.
Marg'ilonlik bir dildor
Tortib oldi begimni.

Kulgu ketmay ko'zimdan
Yog'ar bo'ldi ko'zyoshim.
Ko'z-ko'z qilib baxtini
Yoqar bo'ldi kundoshim.

Nima bo'ldi, bek yigit,
Bekangizga qarash yo'q?
Kumushdan ming o'rgilib,
Zaynabdan hol so'rash yo'q.

Taqdir derdim, shum taqdir,
Ko'nglim ko'nsa -kuymasdim.
Begin, Sizni men axir,
Kumushdan kam suymasdim..

Qolsam - dardim bir dunyo,
Ketsam - bir uy ko'chim bor.
Kumushoyni keltirgan
Aravada o'chim bor!

IZHORI DIL

Ko'lna tolbeshikdan
Boshlangan olam.
Senga iddaolar

Qilmay sevaman.
Bir kuni singlim, deb,
Bir kuni onam -
Vatan,
Kimligingni
Bilmay sevaman!..

To'zg'iysi to'ningdan
Tortgan to'ralar.
Kecha tuzingni yeb,
Sotgan to'ralar.
Endi pushaymonda,
Tuynik mo'ralar -
Men sening
Yoningdan
Jilmay sevaman.

Menga yering suyuk,
Osmoning suyuk.
Boqsam, teng
To'rttala
Tomonning suyuk.
Tovonimga kirgan -
Tikoning suyuk -
Kaftdan
Zirapchang ham
Yulmay sevaman.

Cho'ksang,
Tur, singlim deb,
Soching silayman.
So'ksang,
Opam deyman,
Umring tilayman.
Sendan ranjimayman,
Gina qilmayman -
Xoh xo'mray,
Xoh jilmay,
Birday sevaman.

Vatan -
Yuragimning
Olampanohi,
Bu dunyo
Bukri bir
Jiydangning shohi!..
Ko'zim yoshi bilan
Sug'orib gohi
Ko'ksimda o'stirgan
Gulday sevaman.

Bu yorug' jahonda
Yo'g'u borimsan,
Tilimning ostida
Novvot-zarimsan.
Sen mening yagona
Payg'ambarimsan,
Men Bilol,
Men Habash -
Qu'day sevaman!..

QAYDA BOR

Yomg'ir yog'ar shitirlab,
Nurmi, ipak tolalar.
Bahor kelsa qiqirlab,
Qirga chiqar lolalar.
Lolalar har joyda bor,
Bizda bori qayda bor?..

Ko'kni bulut o'raydi,
Yerni yomg'ir allalar.
Rayhon hidin taraydi,
Donga intiq dalalar.
Dalalar har joyda bor,
Bizda bori qayda bor?..

Saman yo'rg'a yer chizib,
Toshda omoch sirg'alar.

Oqar oyni oqizib,
Jildir-jildir jilg'alar.
Jilg'alar har joyda bor,
Bizda bori qayda bor?..

Qalbga taskin izlasang -
Turg'un cholni so'ragin.
"Tanovor" ni tinglasang
Sel bo'ladi yuraging.
Navolar har joyda bor,
Bizda bori qayda bor?..

Ko'ringanni duolar,
Qilar bizda momolar.
G'animga ham omonlik,
Tilar bizda momolar.
Momolar har joyda bor,
Bizda bori qayda bor?..

Bizning bo'ston qayda bor,
Shohimardon qayda bor,
So'lim Surxon qayda bor?
Samargandnon qayda bor-a,
O'zbekiston qayda bor?!.

DO'PPI

Do'ppi kiymay qo'ydi odamlar,
Bir shoir, bir nosirdan boshqa.
Sochlar silliq,
Silliq qadamlar,
U og'irlik qilyapti boshga...

Rost do'ppilar,
Yolg'on do'ppilar,
Kinolarda qolq'on do'ppilar.
Chust do'ppilar,
Anjon do'ppilar,
Munchoqdek Marg'ilon do'ppilar...

Do'ppi kiymay qo'ydi odamlar,
Bir shoir, bir nosirdan o'zga,
Men ham sizga herdim savollar,
Shlyapamni bostirib ko'zga.

Do'ppi kiymay qo'ydi odamlar,
Ko'ngil esa ko'rmoq tusaydi.
Madaniyat gullagan damlar,
Kallaga e'tibor susaydi.

Do'ppi kiymay qo'ydi odamlar,
Na uyda va na ko'chada.
Mirtemirlar, G'afur G'ulomlar
Yechgan do'ppi qoldi tokchada...

Bu qandayin ko'rgulik savdo,
Do'ppi kiymay qo'ydi xaloyiq.
Boshga loyiq do'ppi yo'qdir yo -
Bosh qolmadi do'ppiga loyiq.

Bisotimni bog'da bir halol
Kapalakka almashaman men.
Hayotimni ko'kdagi zilol
Kamalakka almashaman men.

Yog'dularga cho'milgan shahar
Betonlari biqinni chaqar.
Uyim qasr bo'lsa ham agar,
Guvalakka almashaman men

Shoirlikni suymaydi jinim,
Menga havas qilmagin, inim.
Shuhratimni totli bir tilm
Handalakka almashaman men.

Qo'shiqlarim bo'lib ovoza,
Yurda mashhur emishman toza!..
Barcha yozgan she'rim bir kosa
Sumalakka almashaman men.

BIBI

Marg'ilon havosi elitdi andak,
Ma'yus ko'chalarda yurdim dovdirab.
Hozir Kumush chiqib qoladigandek
Har eshikka boqdim ko'zim jovidirab.

Chiqsa, Bibi derdim,
She'rga yor bo'ldim,
U bir yuho yanglig' domiga tortar.
Shuhrat yo'liqqanda do'stga zor bo'ldim,
Qalbimni yolg'izlik azobi o'ttar.

Asli-ku, shaharga yo'llim chap edi,
Netay, poytaxtdiman, nasibam ekan.
Sening-ku, dushmaning bir Zaynab edi,
Mening kundoshim ko'p, yovlarim ulkan!..

Bulardan qo'rqqulik. Bular dog'uli,
Zaynab nima? Zaynab bir rashk bandasi.
Bular dushmanlarning eng nomard xili,
Bular kundoshlarning eng sharmandasi.

Qon to'la ko'zida yaltirar hasad,
Bular na shoir, na omadsiz odam.
Ular oyoq qo'ygan har zina jasad,
Shular gumdon qilgan Qodiriyni ham... .

Marg'ilon havosi elitdi andak,
Ma'yus ko'chalarda yurdim dovdirab.
Hozir Kumush chiqib qoladigandek,
Har eshikka boqdim ko'zim jovidirab.

Chiqsa, Bibi derdim,
Men yozmay qo'ydim,
O'rningga boray, sen Marg'ilonga qayt.
Tug'ildim. Yashadim. Zerikdim. To'ydim
Zaharidan bersin, kundoshingga ayt!..

O'LAN

To'ylarni hammadan ham
Bo'y qizlar xush ko'rarmish.
Bitta qiz erga tegsa,
Qirqtasi tush ko'rarmish.

To'yxonada kuy tinib,
Tinganida olovlar.
Qirq suluvni yig'latib
Ketar ekan kuyovlar...

Singillarim, yig'lamang,
Yig'lasangiz hafaman.
Yurtni kezib, sizlarga
O'zim kuyov topaman.

Oq tilaklar bor bo'lsa,
Omon bo'lsa umidlar,
Izingizga zor bo'lar
Muhammaddek yigitlar!..

TOPVOLDI

O'zim yozgan she'r ham o'zimnikimas -
Ming bir muharrir bor uyimda.
Sizga ko'rsatolmam o'z bolamni ham,
O'zim kiyintirgan kiyimda.

Xotinim qizlarni yozmaysan, deydi,
Otam podsholarni. Meni avaylar.
Ilhom yillab eshik qoqmaydi gohi,
Yurak voyvoylar...

Gulxan bo'lib ketdi qancha she'rlarim,
Muhabbat haqida edi hammasi,
Aziz muxlistarim, bilib qo'yinglar,
Shoirga xo'jayin hatto ammasi!

Men ham durust shoir bo'larmidim, balki,
Eng go'zal baytlarim yirtilmaganda.

Ushbu she'rimni ham tamaki izlab,
Tokchadan topvoldim kutilmaganda.

Topdimu otini topvoldi qo'ydim,
Yuzlaridan o'pdim yarim kechada.
Qulog'iga shivirlab: men uydan to'ydim,
Sen bor, o'ynab kelgin, dedim, ko'chada!..

HAYVONOT BOG'I

Hayvonot bog'ida jayronni ko'rdim,
Tutqunlikda dili vayronni ko'rdim.
Ko'rdim, quruq shohda sayrar to'tilar,
Yig'lamisirab tovush qayrar to'tilar.

Qanotdan ayrilib, qilar pardozlar,
Osmonida endi ucholmas g'ozlar.
Burgtarlarning boshi egilgan yerga,
Bulbullarning yoshi to'kilgan yerga.

Kaklikning to'shi qon, tumshuqlari qon,
Qumrilarning ma'yus ko'zları - doston...
Bu dunyo aslida hayvonot bog'i,
Mushtoq - zorlikka kon boshdin-oyog'i.

Bir-bir barin sanab netarman, bas-da,
Neki go'zal bo'lsa bari qafasda!..

Qiyosi yo'q aslo, mehri bir daryo,
O'xshasa o'ziga o'xshaydi o'zbek.
Bolalariga-ku bildirmas, ammo,
Dunyoda bolam deb yashaydi o'zbek.

O'nta bo'lsa, o'mni boshqa uning-chun:
O'g'lim otashimdan yaralgan uchqun,
Qizim parilardan chehrasi gulgun,
Yuzlari lolam deb yashaydi o'zbek.

Bir qo'lda helanchak, bir qo'lda Qur'on,
Bir yelkada ketmon, birida ijmon,
Barchaga barobar bir oftobsimon,
Yashnasin olam deb yashaydi o'zbek.

Momolari tetik yuzga kirsa ham,
Bobolari qaysi yigitlardan kam?
Nabirasi bo'lsa bitta uyga jam,
To'shak yetmay to'nin to'shaydi o'zbek.

Kindik qoni tomgan tuproq unga - shon,
Kerak bo'lsa, beso'z baxsh etar u jon,
Ko'krakka urmaydi: Vatan deb, Vatan!
Alpomish o'g'longa o'xshaydi o'zbek.

Ehtirom etganga chromlari bor,
Kekkayganga bo'yin egmaydi zinhor,
Beshik to'la jajji Islomlari bor -
Tosho'tmas qo'rg'onga o'xshaydi o'zbek.

TERMA

Yomon ko'z tosh yorar der,
Yomon do'st bosh yorar der.
Yomon erkak to'y buzar,
Yomon ko'z uy buzar der,
Yomon bo'lsa ya'lidoshing
Bor baxting ham to'zar der.

Yomon boqqa gul bo'lma,
Sahroda bo'l yulg'uncha.
Yomon bilan yurguncha -
Yolg'iz yasha o'lguncha!..

Bildingki, bevafodir,
Ko'ngil qo'ymoq xatodir,
Qo'l o'pib, qo'yningni
Nimta-nimta etodir,
Bir ish tushsa boshingga
Boqmay tashlab ketodir.

Qayg'urguncha qayg'urjin,
Qayrilmasga qayrilma.
Vafosizga berilib,
Vafolidan ayirlma!..

Bir ko'ngil imorati,
Ming Makka ziyorati.
Bor bo'lsin har ko'ngilning
Ko'ngilga ibodati.
Qasr qurma, Muhammad,
Ortingda bir iz qoldir.

Oltin sochib orttirgan
Obro'ying bir misqoldir,
Dunyo yig'ib netarsan,
Bir kun tashlab ketarsan!..

INSON

Yulduzlarni yutib yubordi bu tun,
Yutdiyu unutib yubordi bu tun.
Shunday tunda agar yig'laging kelsa,
Sen odam ekansan, odam ekansan.

Chaqaloq tug'ildi - sochi qop-qora,
Ko'zini ochmasdan jilmaydi, qara.
Shunday kunda agar kuylaging kelsa,
Sen odam ekansan, odam ekansan.

Men taskin izladim kuygan jonimga,
Suydim, balolarga qoldim, yonimga
Kelib sekin holim so'raging kelsa,
Sen odam ekansan, odam ekansan.

Tanho bilmasa ham, bilsa ham Vatan,
Yig'lasa ham Vatan, kulsu ham Vatan,
Unga jonni tikmoq tilaging bo'lsa,
Sen odam ekansan, odam ekansan.

**Qahr bu - adovat, araz o'tkinchi,
Quyosh ko'tarilib, quyosh hotguncha,
Kerakmaslarga ham keraging ho'lsa,
Sen odam ekansan, odam ekansan.**

TILAK

**Har kimning ham sochlariqa oq tushsin,
Ajin tushsin yuzlariga, dog' tushsin.
Har kimning ham quvvat ketib belidan,
Qo'llariga aso - bir tayoq tushsin.**

**Jmoni sof, yuzga kirib yorug' yuz,
To'ylar ko'rib yelkasidan tog' tushsin.
Jismiga so'nggi safar oldidan
O'z bolasin qo'lidan tuproq tushsin...**

BOR BO'L SIN

**Qiz bor uyning fayzi bo'lak deydilar.
Jannat yo'li - qiz bor yo'lak deydilar.
O'ngirimda o'g'lim yo'q deb o'ksimang,
Tog' bo'lmasa qir ham tirkak deydilar.
Elning baxti botirlarga yor bo'lsin.
Ominalar, Xolidalar bor bo'lsin!..**

**Qiz yo'q yurtga ko'klamlar sep to'sharmi?
Kelini yo'q to'ylar to'yga o'xsharmi?
Qiz borki, o'lka omon, qo'rg'on but,
Qiz kutmasa yigit olov kecharmi?
Jonlar ilhaq, ilinjlar tumor bo'lsin.
Ma'sudalar, Mahzunalar bor bo'lsin.**

**Qizi yo'qning oysiz xomush osmoni,
Qizi borning qasrdir xonadoni.
Shu munglig'u shu mushtipar parvonang,
Yigit yo'lning, qiz - ko'ngilning sultoni.
Ota uyda har kuni bahor bo'lsin,
Mavludalar, Ma'sumalar bor bo'lsin.**

Ey Muhammad, olti og'a-ining bor,
Birda yaxshi, birda yomon kuning bor.
Bir kun boshing botar bo'lsa bolishga,
Qizlaringdan yaqin yana kiming bor?!
Sovchilari eshidiga zor bo'lsin -
Nozimalar, Madinalar bor bo'lsin.

ERTAK

Ertagim cho'zildi, mening ertagim...
Ertaga endi bu dunyodan o'tsam,
Hayot, azizim, sen xafa qilmagin,
Mening shiringina qizlarimni ham.

Ko'nglimdan to'kilgan kuylar nimadir,
Alvon qo'shiqlarim uchar izimdan.
Yozgan kitoblarim - qog'oz kemadir,
Men ketsam, ular ham ko'char izimdan.

Kulga ko'mdim oltin fursatlarimni,
Endi bir kun faqat dadil va o'ktam
Shoirchalar qilsa g'iybatlarimni,
Balki, biron kimsa estar meni ham.

Eslamasa nima, men bir to'pori,
Qishloqi so'zbozni, osmon yiqilmas.
Urib turgan qalbning tirikdir zori,
To'xtaganidan so'ng yurak siqilmas...

Men sening boringga bo'ldim parvona,
Sahrolaring kezib toldi tovonim.
Kiprigim oldida turibdi, mana,
Tovusday tovlanib oxir dovonim.

Ertagim cho'zildi, mening ertagim,
Tongni ko'rolmasdan dunyodan o'tsam,
Hayot, yolg'izim sen xafa qilmagin,
Mening shiringina qizlarimni ham!

UZR

Biz bahorga oshiq bo'ldik, kuzdan **uzr**,
Xazonlarda qolib ketgan qizdan **uzr**,
Har ne o'tsa bizdan o'tdi, bizda gunoh,
Tug'ilмаган qo'shiqlарим, sizdan **uzr**...

Sog'inchlarga singil bo'ldi suyukli yor,
Men merovda na mehr bor, na ko'ngil bor,
Ozroq ilhom, ko'proq sharob qildi xumor...
Tug'ilмаган qo'shiqlарим, sizdan uzt.

Tilimdan bol tomди boqib olamga goh,
Bir shirin so'z aytolmadim bolamga goh,
Yillab barmoq bosolmadim qalamga goh,
Tug'ilмаган qo'shiqlарим, sizdan uzt.

Yo'lim qarab jayron ko'zi tolib ketgan,
Goh dalada daydi shamol olib ketgan,
Goh andisha ayvonida qolib ketgan,
Tug'ilмаган qo'shiqlарим, sizdan uzt.

Dili borga dildan dardim to'kkanim rost,
So'z boshida bosh egib tiz cho'kkanim rost,
Gohi jonne avaylagan - qo'rqqanim rost,
Tug'ilмаган qo'shiqlарим, sizdan uzt.

O'ksimasin zardob to'la ko'ngilchangiz,
Daryo-daryo ko'z yoshim bor cho'milsangiz,
Men ham mashhur bo'larmidim, tug'ilsangiz,
Tug'ilмаган qo'shiqlарим, sizdan uzt.

Yuragimning tagidasiz yalpizdan pas,
Goh o'ylayman - shundoq qo'lim uzatsam bas!
Yuzingiz bir ko'rmay sira o'lgim kelmas...
Tug'ilмаган qo'shiqlарим, sizdan uzt.

MENING ERTAGIMSAN

Mening shodligimsan, bolaligimsan,
Mening g'ussam o'zing, mening armonim.
Seni osmonimga olib ketaman,
Yerda bizga kun yo'q, kun yo'qdir, jonim!..

Xato qildimmikan men erta kelib,
Yo sen adashdingmi kelib keyinmi?
Goho kimliging ham bo'lmaydi bilib,
Inim deymi seni, sevgilim deymi?

Ket, deb haydolmasam netaman,
Kel, deb aytolmasam netaman.
Seni osmonimga olib ketaman,
Seni osmonimga olib ketaman...

O'ylamay deymanu o'ylamay bo'lmas,
O'tsang sen tomon bir bo'ylamay bo'lmas.
Sen mening hammadan yashirgan sirim,
Mening ettagimsan, so'ylamay bo'lmas.

Ket, deb haydolmasam netaman,
Kel, deb aytolmasam netaman.
Seni osmonimga olib ketaman,
Seni osmonimga olib ketaman...

Sevgim mening, men bilmadim, mening sevgim,
Ko'zing shahломиди сенинг, xumormidi?
Ertakdagи Layli senday dildormidi,
Ay, yuzingni bir ko'rмадим, mening sevgim.

Goh gul bo'lib yashnadi dil, goh so'ldi gul,
Goh yig'latib, goho o'zi qon bo'ldi dil.
Tomog'imda chirqiragan jon bo'ldi dil,
Ay, yuzingni bir ko'rмадим, mening sevgim.

**Seni faqat o'lislardan allaladim,
Erkalasain xayolimda erkaladim.
Sochlaringni tushlarimda siyapladim,
Ay, yuzingni bir ko'rmasdim, mening sevgim.**

**Sen qush bo'lib uchding-ketding, tutolmadim,
Ohu bo'lib qochding, quvib yetolmadim.
Bir bor ko'rib bir shirin so'z aytolmadim,
Ay, yuzingni bir ko'rmasdim, mening sevgim.**

**Soch oqardi yurakdagi shu bir cho'g' deb,
Armondag'i, tilakdagi shu bir cho'g' deb,
Yigit umrim zorjanadi sevgi yo'q deb,
Ay, yuzingni bir ko'rmasdim, mening sevgim.**

**Ana, ajal ostonamda turar bo'ylab,
Farishtalar chorlar meni o'lan so'ylab,
Jannatlarda zerikarman seni o'ylab,
Ay, yuzingni bir ko'rmasdim, mening sevgim.**

ONAIZOR

**Ko'nglim qolsa bulbuldan ham, guldan ham,
Qolar bo'lsam bir kun axir tildan ham...
Agar bir zot yig'lasa chin dildan ham -
Onam yig'lar, onam yig'lar, onam u...**

**Sig'may qolsam shunday keng bu jahona,
Osmonlarga ruhim bo'lsa ravona,
Jonsiz tanim ustida ham parvona -
Onam yig'lar, onam yig'lar, onam u...**

**Tonar bo'lsa qo'llimdag'i tor, dunyo,
Uch kun o'tmay unutgay do'st-yor, dunyo.
Yeru ko'kni titratib zor-zor, dunyo -
Onam yig'lar, onam yig'lar, onam u...**

**Gulday kuilib yurmasmidi o'g'lim, deb,
Ko'rib ko'nglim to'lmasmidi, o'g'lim, deb,**

Onang o'lsa bo'lmasmidi o'g'lim, deb
Onam yig'lar, onam yig'lar, onam u...

Ko'nglim qolsa bulbuldan ham, guldan ham,
Qolar bo'lsam bir kun axir tildan ham.
Agar bir zot yig'lasa chin dildan ham -
Onam yig'lar, onam yig'lar, onam u...

KO'NGLIMDAGI YOR

Muhabbat bog'iga kirmadim bir bor,
Suyib bir gulga qo'l urmadim bir bor.
Endi tunlar yig'lar menga qo'shib,
Ko'nglimda bir yoru qo'ynimda bir yor.

Biri birisiga o'xshamas, yorab,
Ko'zimning yoshlari to'xtamas, yorah.
Kuyarman bir unga bir munga qarab...
Ko'nglimda bir yoru qo'ynimda bir yor.

Birin erkalayman dudog'im bilan,
Birisin erkalab nigohim bilan
Yasharman savobu gunohim bilan -
Ko'nglimda bir yoru qo'ynimda bir yor.

Birin hur deyinmu, birin guloyim,
Suymaganim suyganimdan muloyim.
Bu qanday ko'rgilik ekan, Xudoyim,
Ko'nglimda bir yoru qo'ynimda bir yor.

Daryoman, ikkita qirg'oqda ko'zim,
Tovonimda bo'zim, tomoqda bo'zim.
Ikki o't ichida qiyonoqda o'zim,
Ko'nglimda bir yoru qo'ynimda bir yor.

BESHINCHI O'G'IL.

Yetmish yulduz yog'ilib,
Yarim oycha to'lolmas,
Yetti yanga yig'ilib,
Bitta ona bo'lolmas,
Ona tirik eshikka
G'urbat yaqin yo'lolmas,
Mening esa, bag'rim qon,
Vayronaman, Onajon...

Garchi biz yosh, g'o'r edik,
Siz bot - biz ham zo'r edik,
Bir mayizni besh o'g'il
Teng bo'lishib yer edik,
Goh talashsak, haq so'zni
Onam aytisin der edik,
Tushmi endi u zamon,
Hayronaman, Onajon...

Tirik yursa validang
Toqqa kuching yetarkan,
Onang o'lsa, boshingdan
Oftob o'tib ketarkan,
Jindekkina alam ham
Tog'dek botib ketarkan,
Ko'ksim to'la ming armon,
To'lg'onaman, Onajon.

Onasiz uy - oysiz tun
Ekan endi o'ylasam,
Qalbni o'ttar dardlarim,
Qay birini so'ylasam?
Sizsiz ko'cham befayz,
Halovat yo'q uyda ham,
Farishtasi tark etgan
Ostonaman, Onajon.

O'zing uchun o'l yetim!..
Orda ham men, qirda ham.

Ko'ylagimda tugma yo'q.
Tugma bo'lsa, kir - yoqam.
To'rt yangamga qo'shilib
Turkilaydi to'rt og'am,
O'z uyimda jonajon,
Begonaman, Onajon.

Ko'ngil o'zin tutingan
Bir mehribon qo'msaydi,
Dunyoda bir odamga
Siring aytib bo'lsaydi,
Onasizni do'sti ham,
Dushmani ham aldaydi,
Ayting axir, men kimga
Ishonaman, Onajon?..

Yo'qligingiz qadamda
Turar shunday bilinib,
Non yopmaysiz tonglari
Menga kulcha ilinib,
Sarg'ayarman sarg'aygan
Rasmingizga termulib,
Ziyo istab zor qaqshar
Parvonaman, Onajon...

Uy to'rida tolbeshik -
Akam yotgan, men yotgan,
Sherdek-sherdek kelbatli,
Besh o'g'ilga asqotgan,
Qaytib kirib bo'lsaydi
Bo'lardim jon deb qaytgan!..
Men bu joyni hammadan
Qizg'onaman, Onajon.

...Yashayapman sharpadek
Sezilmay goh, sezilib.
Gohi ko'kka intilib,
Gohi yerga egilib,

Sog'inganda she'r yozib
Yuraklarim ezilib -
El ichra bir shoiri
Devonaman, Onajon.

O'G'IL BO'LSANG...

O'g'il bo'lsang o'jar bo'l,
Shamoldek yel, suvdek tosh,
Hech kimsaga bukma bosh
Cho'rtkesar bo'l, qaysar bo'l,
Olov bizga qarindosh -
O'g'il bo'lsang o'jar bo'l!..

O'g'il bo'lsang o'jar bo'l:
Tug'ildingmi demak yon,
Shoh qo'lida zanglagan
Qilich bo'lma hech qachon.
Undan ko'ra bitta mard
Qul qo'lida xanjar bo'l!..

C'g'il bo'lsang o'jar bo'l,
Qolgan bari safsata.
Erking uchun, el uchun
Nomusingga navkar bo'l.

Yetar, bir bor yurtingni
Biz boy berdik gap sota...
Agar aytsang qo'limdan
Kelmas bu ish, yo'q, ota,
O'zim seni o'diray
Tug'ilganing lahzada!..

NECHUN...

Begijon akamga

Nechun qulluq qilmay 'Andijonga men -
Shu yurtda tug'ildim, shu yurda o'sdim,
Agar do'stim bo'lса, bitta u do'stim -
Nechun qulluq qilmay 'Andijonga men!..

Shu aziz tuproqdir, shu qadim qo'rg'on,
Dunyoga Boburdek shohlarni bergan,
Mohlaroyimlarning sochlarin o'rgan...
Nechun qulluq qilmay Andijonga men.

Yodimga o't tushsin, etmasam yodlar -
Dukchi eshonlari qilgay faryodlar,
Uni tavof etgan Mashrabdekk zotlar,
Nechun qulluq qilmay Andijonga men.

Saylab yurt ajratmoq fe'limga yiroq,
Buxor minorlari ko'nglim etar tog',
Menga Samarcand ham azizdir, biroq,
Nechun qulluq qilmay Andijonga men.

Garchi menga zulmat uningsiz olam,
Men bormanni - yo'qmi unga nima g'am,
Mayli, yaxshi kunda eslamasa ham,
Nechun qulluq qilmay Andijonga men!..

Tuprog'i jannatdek qilguvchi g'amza
Men o'sha yam-yashil vodiyidan maysa.
Ming jonim sadag'a bitta jilmaysa -
Nechun qulluq qilmay Andijonga men.

Meni oqibatsiz bilma, ey g'anim,
Orsiz ortimda to'y qilma, ey g'anim.
Aybim - yo'qlaganda borolmaganim,
Nechun qulluq qilmay Andijonga men.

O'limasam yorug' yuz, yuzlarga kirib,
Emaklab borarman majolim qurib,
O'lsam ham har kun bir go'rimdan turib,
Nechun qulluq qilmay Andijonga men!..

O'ZBEK QIZLARI

Bu Momo Havodan ularga odat:
Ushlasa gul ushlar qo'lini faqat,
Kuyovga chiqmagan o'zbek qizlarin
O'psa faqat shamol o'par yuzlarin.
Bu Momo Havodan ularga odat:
Nozik belda qirqa kokili qavat,
Silasa yomg'irlar silaydi faqat,
Ko'rsa faqat osor ko'rар ko'zlarin -
Kuyovga chiqmagan o'zbek qizlarin.
Jilmaysa nur yog'ar gul yonoqlardan,
Sir yashirar hatto qzg'aldoqlardan.
Ostob botgandan so'ig xilvat bog'lardan,
Behuda izlamang sira izlarin -
Kuyovga chiqmagan o'zbek qizlarin.
Kongli daryoday keng, nehri ulug'vor,
Dugonasi Hayo, sinfdosh Or.
Ayting, farishtadan nima hrqi bor,
Kuyovga chiqmagan o'zbek qizlarin?..
Bardoshi oldida tog' - oddiy tuproq,
Ular etagidan jannat bir qadan.
Beayb Parvardigor, degandek biroq,
Yo'q emas kichkina kamchilig ham.
Sevadi,
Kuyadi,
Qiladi alam,
Dorga osing, ammo aytmas birovga.
Aytmay sevishini sevganija ham,
Tegib ketaverar boshqa kuyovga!

TILLO SANDIQ

Baland jardan tashlandi,
Tillo sandiq daryoga.
Yoringman deb yuzlandi,
Qorabotir Zuhroga.
Tohir emas, bag'ri xun,
Oqib ketdi muhabbat...
Bu dunyoga etagin
Qoqib ketdi muhabbat...
Qaysni quvg'in qilishdi,
Ul oshig'i shaydoni.
Ermak qilib kulishdi,
Qon yig'lagan Layloni.
Majnun emas, sahroda,
Sarson bo'ldi muhabbat.
Ikki ko'zi samoda,
Hayron bo'ldi muhabbat.
Afsona bo'ldi, yohu,
Armon bo'ldi, muhabbat.
Odamdan bezgan ohu,
Jayron bo'ldi muhabbat.

O'ZBEKNING AYOLLARI

Uxlamaydi tunlari,
Oy nurlari taralgan.
O'zbekning xotinlari
Farzand uchun yaralgan.

Yildan uzun kunlari,
Kim ko'nglini so'rolgan.
O'zbekning xotinlari
Mehnat uchun yaralgan.

Qirq yil qirg'in bo'lsa ham,
O'z ahdida turolgan.
O'zbekning xotinlari
Toqat uchun yaralgan.

**Yot oldidan sal nari
Qachon kokil o'rolgan.
O'zbekning xotinlari,
Iffat uchun yaralgan...**

**O'zbekning ayollari,
O'zbekning xotinlari,
Suvdan halol,
Guldan pok,
Qo'llari oltinlari,
Qay tomonga bursa yuz,
Yo'llari oltinlari -
Izzat uchun yaralgan!**

EL SUYGAN SHOIR

2001 yil, iyul oyining so'nggi kunlari edi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi rabbarligida bir guruh shoir-yozuvchilar Qoraqalpog'istonning Ellikqal'asiga ijodiy safarga borgan edik. Muhammad Yusuf bilan biz bir xonaga joylashdik. Kechqurun havo dimlangandan dimlandi. Boshqalar kabi biz ham karavotlarimizni ayvonga olib chiqdik. Qitday shabada yo'q. Faqat chigirtkaarning tinimsiz chirillashi eshitiladi. Tun yarim bo'ldi hamki, Muhammadjonning ko'ziga uyqu kelmadni. Mening karavotim chekkasiga omonatgina o'tirdi-da: "Aka, Mirtemir domlaning uyiga borganingizda necha yoshda edingiz, o'shanda nima bo'lgan edi, aytib bering", deb meni gapga tutdi. Oldinlari ham men bu voqeani unga ko'p bor so'zlab bergan edim. Qiziq, yana eshitgisi keldi. Ustozning ismi qulog'imga kirdiyu men dadillanib gapga tushib ketdim. Keyin Andijon haqida, oila va ijod, she'riyat olami haqida gaplashdik. U endi nasrda ham o'zini sinab ko'rmoqchi ekanligi, ancha-muncha qoralamalar qilayotganini aytdi. Ammo ancha dilgir, negadir ko'ngli mahzun edi. Ovozida o'ksish, odatdagiday beozor ohang bor edi.

Tongda turib, bog'ni aylandik. Favvoralarni tomosha qildik. Soat 11 da yangi qurilgan kollejning katta zalida adabiy tadbir bo'ldi. Qoraqalpoq va Xorazm yosh shoirlarining she'rlarini tingladik. Mushoira oxiriga yetgach, hakamlar hay'ati raisi bo'lgan Muhammad Yusuf natijalarni e'lon qilgani minba'ga ko'tarildi. Qo'lidagi qog'ozlarni ochib o'qimoqchi bo'ldiyu, to'satdan chayqalib ketdi va polga yiqildi... Tezda tibbiy yordam uyuşhtirilib, uni do'xtirxonaga olib ketishdi. Ming tashvish va sarosima bilan dasturda belgilangan navbatdagi tadbirlarda ishtirok etish uchun jo'nab ketdik. Soat 19 larda yotoqxonaga qaytdik. Hech narsa yuz bermagandek Muhammad Yusuf turibdi: "Yaxshi bo'lib qoldim, do'xtirlar javob berdi", - dedi. Muhammadjondan hol-ahvol so'rab, uni "sog'ayib qoldi", deb suyundik. Biroz vaqt o'tib men xonaga kirdimu, tashqarida bo'lgan qiy-chuvni eshitib yugurib chiqdim. Muhammadjon yana yiqilib tushibdi. Tepasida odamlar. Hamma yordamga shoshadi. Men ham nima qilishni bilmay, "Muhammad, Muhammadjon, nima bo'ldi?" - deb, peshonasini ushladim. U juda past ovoz bilan: "Bosh... bosh yorildi", - dedi. Boshqa gapirilmadi...

Ertasi kun og'ir ilinj va qayg'u bilan Toshkentga qaytdik. Tong yorishay deganda telefon orqali xabar bo'lди: Muhammad Yusuf shifoxonada uzilibdi... Ko'п maslahatlar, mulohazalar bilan shoир jismini ko'zdan alamlı yoshlар to'kib Marhamatga olib keldik. Shoир voyaga yetgan mahalla hududidagi "G'ishtli mozor" qabristoniga tumonat xalq bilan birga dafn qildik...

Shu kuni muhtaram Prezidentimiz shoирning onasi Enaxon ayaga chuqur hamdardlik bildirib, ta'ziya maktubi yo'lladi. Unda shunday satrlar bor edi: "O'g'lingiz Muhammadjon noyob iste'dod egasi, odamlarga mehribon, sofdil, mard va kamtarin inson edi. Shu bois hu mudhish xabar ko'plab do'stlari va muxlislari kabi mening ham qalbimni larzaga soldi".

Vidolashuv marosimida xalq shoiri, Muhammadjonning sevimli ustozи Abdulla Oripov: "Bevaqt o'lim adabiyotimiz gulshanida barq urib ochilib, yashnab turgan bir chechakni uzdi-yu ketdi", dedi. Xalq yozuvchisi Said Ahmad esa: "Uning ko'ksida hali yorug'likka chiqmagan bir dunyo she'r, bo'g'zida bastakor bilan yuz ko'rishmagan yetim qo'shiqlar qoldi", deb yozdi.

Muhammad Yusuf xalqning dardini kuylagan betakror shoир edi. U qaysi mavzuda yozmoqchi bo'lsa, o'tli ilhom qalbini elitmaguncha, "dard" avjiga chiqmagunicha qalam tutmasdi. Adabiyotshunos olim, ustoz Ozod Sharafiddinov yozadi: "Bir davrada Cho'lponing "Ko'klam" she'ri to'g'risida gap bordi. U mening ta'rifimdan ta'sirlanib ketdimi, ichkari xonaga kirib ketdi-da, 10-15 daqiqa o'tgach, chiqib, qo'limga "Ko'klamoyim" she'rini tutqazdi. Uni menga bag'ishlaganini aytdi. She'rni o'qib, ko'zimdan yosh chiqib ketgandi o'shanda".

Mana, o'sha she'rdan ikki band:

*Kel-da endi sog'intirmay odamni,
Sen yo'g'ingda bir g'am bosdi yelkamni,
Qorlar kurab ko'mib keldim otamni...
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chimdim.*

*Jon ustida asrab yuray ko'kni men,
To'yib-to'yib ko'zga suray ko'kni men.
Yana senga yetamanmi-yo'qmi men,
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chimdim.*

Shoir ijodida Mustaqillik, Vatan va Xalq obrazlari umummillat dardi bilan yo'g'rilib, nurlanib ketadi. U xalqimizning jasur yo'lboshchisi - Yurtboshimizga bo'lgan mehr va ixlosni yangroq ovoz bilan kuylaydi:

*Daryo bo'lib jo'shgin endi zavqi ulug',
Bayramingda sevinch ko'z yoshingga qullug',
Yurtim, degan jasur Yurtboshingga qullug',
Unga qanot bo'lay desang - xalq bo'l, elim!*

Muhammad Yusuf o'z tug'ilgan yurtini uiug' mehr-muhabbat va chuqr sog'inch bilan she'rga soldi:

*O'lmasam yorug' yuz, yuzlarga kirib,
Emaklab borarman majolim qurib,
O'lSAM ham har kun bir go'rimdan turib,
Nechun qulluq qilmay Andijonga men!..*

U bir gal, otam endi o'tib ketdi, sizni ko'rgani keldim, sog'indim, degandi. Mening rafiqam olamdan o'tib, boshimga hijron toshi tekkanda hamisha yonimda bo'ldi. U beg'araz, behasad qalb egasi, mehribon, sodiq do'st edi. Bir kuni menga shunday: "Aka, sizga bag'ishlab "To'lanboy akaning tovuslari" degan she'r yozdim, o'qiyosiz", degan edi. Ammo o'sha alangali tuyg'u, mehr va oqibat ifodasi bo'lgan she'r qo'limga tegmadi, men uchun armon bo'lib qoldi...

Ko'ngiiga taskin, chidam va bardosh, ayrliqni yenguvchi kuch shuki, shoirning yorqin, betakror ijodiy merosi xalqimiz yuragiga o'rashdi, qalblardan chuqr joy oldi. Shoir qisqa umr ko'rtdi, ammo u yaratib ketgan xazon bilmas ijod bo'stonidan kelajak avlodlar hamisha bahramand bo'lg'ay.

**To'lan NIZOM,
O'zbekiston xalq shoiri**

MUNDARIJA

Xalq bo'l, elim	3
Vatanim	3
Ozoda	6
Yolg'onchilar	6
Sevgi sadosi	7
Tuzalmaydi...	8
Xayol	8
Uyqudag'i qiz	9
She'riyat...	10
Andijon	10
Rayhon	11
O'lSAMU unutsang...	12
Onamga	13
Laganbardorlar	13
Dunyo	14
Samarqand	15
Singlimga maktub	16.
Qizg'aldoq	17
O'tinch	18
Go'zallar	19
Turg'unlik	19
Kuzda...	20
Yor-yor	21
Yaxshi	22
Chimildiq	22
Unutish	23
Ketar bo'ldim	23
Sog'indim	24
Ko'klamoyim	25
Onamga xat	26
Hazil	27
Ota uy	27
Bag'ishlov	28
Ilymon qo'shig'i	29
Qo'yavering	30
Yurtim...	31
Uzr	32
Ota	33
Palaxmon	34
Iqror	34
Ajab dunyo	35
Ota	36

Yog'och beshik	37
Qizlar qo'shig'i	38
«Bosmachilar»	39
Qizilgul	40
Manzara	41
Qari qiz	41
Sanam	42
Shukur deysan sen qachon?	43
Oq ro'mol qizlar	43
Amir Temur	44
Xirmondag'i hola	45
Oq tulpor	46
Inshoolloh	47
Zaynab qo'shig'i	48
Izhori dil	48
Qayda bor	50
Do'ppi	51
Bisotimni...	52
Bibi	53
O'lari	54
Topvoldi	54
Hayvonot bog'i	55
Qiyosi yo'q...	55
Terma	56
Inson	57
Tilak	58
Bor bo'lsin	58
Ertak	59
Uzr	60
Mening ertagimsan	61
Sevgim mening...	61
Onaizor	62
Ko'nglimdagi yor	63
Beshinch'i o'g'il	64
O'g'il bo'lsang...	66
Nechun	67
O'zbek qizlari	68
Tillo sandiq	69
O'zbekning ayollari	69
El suygan shoir	71

Adabiy-badiiy nashr
Muhammad YUSUF
«JYMON QO'SHIG'I»
(*She'rlar*)

Muharrir: **Habibullo**
Tex. muharrir: **Minura Mirzakarimova**
Musahhihlar: **Nigora Tojimatova,**
Nilufar To'raqulova
Kompyuterchi: **Sohiba O'lmasova**

Bosmaxonaga 2004 yil 22 martda berildi. Bosishga 10 mayda ruxsat etildi. Bichimi: 84x108 1/32. Harflar garniturasi Panda Times. Hajmi 2,5 shartli bosma taboq. Tiraji 1000 nusxa. Buyurtma 500. Bahosi shartnoma asosida.

«Andijon nashriyot-matbaa» OAJ bosmaxonasida ofset usu-lida bosildi. Manzil: Andijon shahri, Navoiy shohko'chasi, 71.